

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

IFODALI O'QISH

f a n i d a n

O'QUV - USLUBIY MAJMUUA

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika
fani

Bakalavriat yo'nalishi: 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti

QO'QON -2010

Qayd raqami

O'ZBEKISTON DAVLAT STANDARTI
O'zbekiston uzluksiz ta'limi davlat standartlari tizimi

OLIY TA'LIM

**5141100 – *O'zbek tili va adabiyoti* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik
darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan
TALABLAR**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2008 y.

1. Ishlab chiquvchilar:
Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi;
Toshkent davlat pedagogika universiteti.
2. Respublikaning kadrlar iste'molchi korxona va tashkilotlari,
Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari. Manfaatdor oliy ta'lim muassasalari
bilan kelishilgan.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil
« _ » _____dagi ____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va amalga kiritilgan.
4. Standartning amal qilish muddati - 5 yilgacha.

Ushbu standart O'zstandart agentligining ruxsatisiz ko'paytirilishi va tarqatilishi mumkin emas.

Mundarija

bet

1. 5141100 – <i>O'zbek tili va adabiyoti</i> ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	5
2. 5141100 – <i>O'zbek tili va adabiyoti</i> ta'lim yo'nalishi zaruriy bilimlar mazmuni va bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar.....	6
3. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari.	14
4. Bakalavrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholash.	14
5. Eslatma.....	34
6. Ilova	15

1. 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

1.1 Yo'nalish O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'lim Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatoriga kiritilgan.

1.2. Ta'limning kunduzgi o'qish shakli me'yoriy **muddati – 4 yil**. Akademik darajasi – **«Bakalavr»**.

1.3. Bakalavr:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlash;

- ta'lim yo'nalishi hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarining tegishli magistratura mutaxassisliklari bo'yicha oliy ta'limni davom ettirish;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga tayyorlangan bo'lishi kerak.

1.4. 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrning kasbiy faoliyat sohalari va ob'ektlari tavsifi

1.4.1. Yo'nalishning ta'lim sohasidagi o'rni

5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha o'qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

1.4.2. Kasbiy faoliyat ob'ektlari

5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrning kasbiy faoliyati ob'ektlari: umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, o'zbek tili va adabiyoti, arab va lotin grafikasi.

1.4.3. Kasbiy faoliyat turlari

5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o'qituvchilik*: akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablarida o'zbek tili va adabiyoti, eski o'zbek tili va yozuvi fani o'qituvchisi;

- *tarbiyachilik*: maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;

- *o'quv-metodik*: ushbu yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;

- *ilmiy-tadqiqot*: o'quv jarayoni bilan bog'liq jarayonni o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi mumkin.

1.4.4. Kasbiy moslashuvchanlik imkoniyatlari.

5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr quyidagi kasbiy faoliyat turlari:

- **tarjimon-redaktorlik**: redaktsiya va nashriyotlarda;

- **bibliografiya**: ta'lim muassasalaridagi kutubxonalarda;

- **ilmiy-tadqiqot**: kichik xodim sifatida ilmiy-tadqiqot muassasalari va markazlarida ishlashga moslashishi mumkin.

1.5. Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari

5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr quyidagi:

5A141101 – O'zbek tili

5A141102 – O'zbek adabiyoti

5A140801 – Pedagogika

5A140802 – Psixologiya

5A140803 – Ta'lim tizimi menejmenti

5A220101 – Adabiyotshunoslik

5A220102 – Lingvistika

5A220103 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti

5A220104 – Adabiyot manbashunoslik va matnshunoslik

5A220105 – Adabiy tanqid mutaxassisliklari hamda ta'limning vakolat-li organi tomonidan aniqlanadigan turdosh yo'nalishlar mutaxassisliklari bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda magistraturada o'qishni davom ettirish mumkin.

2. 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

2.1. Bakalavr tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar

Bakalavr:

- dunyoqarash xarakteridagi bilimlar tizimiga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon hamda hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- sog'lom hayot tarzini yuritish zaruriyati bo'yicha ilmiy tasavvur va e'tiqodga ega bo'lishi, o'z-o'zini jismoniy chiniqtirishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim.

2.2. Kasbiy malakaviy talablar

Bakalavr:

- *nazariyani amaliyotga tatbiq etish bo'yicha:* o'zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, o'zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, qardosh va chet el adabiyotiga oid bilimlarni egallash, til fanlari, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg'ay olish va o'quvchilarga etkaza olishi;
- *metod va texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha:* an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or pedagogik texnologiyalarni fan va mavzularni o'tish chog'ida tanlay olishi, o'z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo'llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishi;
- *ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish bo'yicha:* har bir mavzuning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, psixologik xususiyatlarini yoritish olishi, o'qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunida fanning o'rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo'yicha pedagogik o'qishlarda ma'ruzalar o'qishi, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda differentsial ta'limni yo'lga qo'ya olishi, o'quv jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni yuritish olishi;
- *ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha:* har bir o'quvchining ruhiy, ahloqiy holatini bilishi, yakka tartibda o'quvchilar bilan va guruh bilan ishlay olishi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqol g'oyasini singdirish, diniy ekstremizmga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- *o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish bo'yicha:* dars tiplarini bilishi va ularni maqsadga muvofiq tashkil etishi, o'quv reja va fan dasturi, tematik rejani tayyorlay olishi, ta'lim muassasasi metodik birlashmasi ishini rejalashtirish va rahbarlik qila olishi, dars jadvalining tuzilish tamoyillarini bilishi, ta'lim muassasasiga rahbarlik qilishni **bilishi kerak**.

Kasbiy mahorat bo'yicha o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat ko'rsatish talablariga **javob berishi kerak.**

2.3. Ta'lim dasturlari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar

2.3.1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha talablar

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blok bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan «*Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar*» bloki bo'yicha bakalavrlar tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yilgan talablar» asosida belgilanadi.

2.3.2. Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha talablar

Matematik kommunikativ kurs

Bakalavr:

- dunyoni bilishning maxsus usuli bo'lgan matematika, uning tushunchalari va tasavvurlarining yaxlitligi;

- axborot texnologiyasining jamiyatni rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati;

- yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim sohasida foydalanish formalari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lish;**

- matematik analiz, analitik geometriya va matematik statistikaning asosiy tushunchalari va metodlari;

- pedagogik dasturlash vositalari;

- matnlarni va grafik axborotlarni tayyorlash, tahlil qilish va ishlov berish, axborot texnologiyalarini **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;**

- ob'ektlarni sifat va miqdor munosabatlarini ifodalashda matematik belgilardan foydalanish;

- pedagogik dasturlash vositalarini ishlab chiqish;

- yangi axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash;

- tarmoq texnologiyalari (internet, elektron pochta va boshqalar) vositalari bilan ishlash;

- axborot texnologiyasining dasturiy vositalaridan foydalanib, turli hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqish **ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.**

Tabiiy-ilmiy kurs

Bakalavr:

- koinotning yaxlit fizik ob'ekt ekanligi va uning evolyutsiyasi;

- tabiiy fanlarning fundamental birligi, tabiatni bilishning tugallanmasligi, uning yanada taraqqiy etishi;

- tabiatda diskretlik va davomiylilik;

- tabiatdagi tartibli va tartibsizlik orasidagi nisbat haqida, ob'ektlar tuzilishining tartibga solinganligi, ularning tartibsizlik holatiga o'tishi va aksincha holatlar;

- tabiatning dinamik va statistik qonunlari;

- tabiiy tizimning ob'ektiv tavsifi bo'lgan ehtimollik;

- tabiatshunoslikning turli bo'limlaridagi o'lchamlar va o'ziga xoslik;

- tabiatshunoslikning fundamental konstantalari;

- muvofiqlik (simmetriya) tamoyili va tabiatni asrash qonunlari;

- tabiatdagi holatlar va uning vaqt o'tishi bilan o'zgarib turishi;

- tabiatdagi ob'ektlarning individual va kollektiv munosabatlari;

- tabiatshunoslikda zamon;

- materiya tuzilishining biologik shakli, xususiyati, tirik sistemalarni qayta tiklash va rivojlantirish tamoyillari;

- biosfera va uning evolyutsion yo'nalishi;

- tirik sistemalar yaxlitligi va gomeostazi;

- organizm va atrof-muhitning o'zaro ta'siri, organizmlar hamjamoasi, ekosistemalar;

- tabiatni muhofaza qilishning ekologik tamoyillari, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiatni asrashga qaratilgan texnologiyalar yaratish istiqboli;

• tabiatshunoslikdagi eng yangi kashfiyotlar, ulardan texnik qurilmalar yaratishda foydalanish istiqbollari;

• fizik va biologik modellashtirish;

• odam biosferasi va ijtimoiy biologiyasi birligi tabiati nuqtai nazardan ularning kasbiy faoliyatdagi oqibatlari;

• Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik joylashishi, tabiiy-iqtisodiy va aholi potentsiali;

• yosh fiziologiyasi va gigienasining asosiy tamoyillari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;

• mexanika, elektr va magnetizm, tebranish va to'lqinlar, kvant fizikasi, statik fizika va termodinamika, moddalarning reaksiyaga bardoshliligi, ekologiyaning asosiy tushunchalari, qonunlari va modellari;

• fizika va ekologiyada nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borish usullari;

• Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik tavsifnomasi, muammolari va rivojlanish istiqbollari;

• fizik va biologik hodisalarning zararli oqibatlaridan atrof-muhitni, insonni muhofaza qilish usullari va metodlari;

• yosh fiziologiyasi fanining asoslari va gigiena talablarini **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi**;

• sodda fizik, kimyoviy va biologik tizim modellaridan o'quv jarayonida foydalanish;

• tabiatshunoslik fanlarining turli bo'limlari uchun xarakteri bo'lgan kattaliklarning tartib raqamlarini o'lchash va baholash;

• atrof-muhit va odamni zaharli moddalardan muhofaza qilish;

• gigiena talablariga rioya qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim**.

2.3.3. Umumkasbiy fanlar bloki bo'yicha talablar

psixologiya va pedagogika kursi

Umumiy psixologiya

umumiy psixologiya

Bakalavr:

• psixologiyaning tabiiy va ijtimoiy fan sifatida talqin qilinishi;

• psixologiyaning sohalari;

• psixologiya va falsafaning o'zaro aloqasi;

• psixologiya va ilmiy-texnik taraqqiyot;

• pedagog faoliyatida psixologiyaning etakchi ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;

• psixika tirik mavjudodning ob'ektiv borliqni aks ettirish shakli ekanligi;

• psixika va ong munosabati;

• ulug' mutafakkirlarning psixologik qarashlari;

• psixologiyaning o'rganish metodlari;

• faoliyat va motivlar, faoliyatning asosiy turlari;

• refleksiya nazariyasi;

• odam psixikasining paydo bo'lishi;

• odam psixikasining ontogenez taraqqiyoti;

• yuksak psixik funktsiyalarining tarkib topishi;

• motivatsiya sohalari;

• irodaviy harakatlar va uni boshqarish;

• individ, shaxs, individuallik;

• shaxs faoliyati;

• shaxsni eksperimental tadqiq qilish metodlari;

• muloqot va uning ko'p maqomli xarakteri;

• nutq va uning funktsiyalari;

- diqqat, uning fiziologik mexanizmlari, turlari;
- sezgi va idrokning fiziologik asoslari;
- xotira nazariyasi;
- xayol va uning turlari;
- tafakkur va hissiy bilish;
- temperament nazariyasi, tiplari;
- xarakter va uning boshqa psixologik hodisalar bilan bog'liqligi;
- qobiliyatning sifat va miqdor xarakteristikasini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda***

qo'llay olishi;

- shaxs (o'quvchi)ning psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi metod va texnologiyalar;
- o'quv jarayonini boshqarish;
- eksperimentlar o'tkazish;
- shaxs (o'quvchi) psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish;
- o'quv jarayonida turli anketa va boshqa usullarni qo'llay olish;
- psixologik ma'rifiy ishlarni tashkil etish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

yosh va pedagogik psixologiya

Bakalavr:

- umumiy psixologiya va yosh psixologiyasi;
- umumiy psixologiya va pedagogik psixologiya;
- fiziologik va psixologik rivojlanish jarayoni;
- yosh va pedagogik psixologiyaning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni to'g'risida

tasavvurga ega bo'lishi;

- iqtidorli bolalar va ularni tanlash;
- yosh psixologiyasining paydo bo'lishi;
- yosh psixologiyasini o'rganish metodlari;
- ta'limning yosh psixologiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni;
- maktabgacha yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari;
- kichik maktab yoshi bolalar psixologiyasi;
- o'smir va o'spirinlar psixologiyasi;
- ta'lim va aqliy taraqqiyot;
- pedagogik qobiliyat va uning turlari;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan psixologik talablarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va***

amalda qo'llay olishi;

- bolalarning psixologiyasiga xos xususiyatlarni o'rganish bo'yicha eksperimentlar o'tkazish;
- bolalarning maktabga tayyorgarligi bo'yicha xulosa bera olish;
- insonning rivojlanish bosqichlaridagi psixologik o'zgarishlarini tadqiq qilish;
- pedagogik faoliyatda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ulardagi turli jarayonlar bo'yicha maslahatlar olib borish;
- yosh psixologiyasi bo'yicha olib borilgan eksperiment va kuzatuvlarni rasmiylashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

Umumiy pedagogika

pedagogika nazariyasi va tarixi

Bakalavr:

- ilmiy tadqiqot ob'ektlari va metodlari;
- pedagogikaning ijtimoiy fan ekanligi;
- pedagogika fanining metodologiyasi;
- pedagogikaning jamiyatdagi o'rni;
- ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uning uzviyligi, uzluksizligi;
- pedagogika fanining asosiy rivojlanish bosqichlari.
- o'tmish va zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari;

- ilg'or pedagogik qarashlar;
- jahon ta'lim tizimi;
- pedagogikaning maqsadiga ko'ra turlari;
- pedagogik jarayondagi integratsiyalar to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati, kadrlar tayyorlash milliy modeli;
- ta'lim va tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, birligi, differentsiatsiyasi, yagona pedagogik

jarayon;

- XXI asr pedagogi obrazi;
- pedagogik antropologiya;
- ta'lim nazariyasi (didaktika)ning asosiy komponentlari: kontseptsionalari, paradigmalari;
- ta'lim printsiplari;
- ta'lim metodlari, texnologiyalari;
- ta'lim turlari va bosqichlari;
- ta'limni tashxis qilish;
- tarbiya nazariyasining mohiyati;
- tarbiyaning mazmuni, printsiplari;
- tarbiyada muhit (sotsium), ruhiyat(psixologiya);
- tarbiya metodlari va texnologiyalari;
- maxsus pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari;
- tarbiya turlari;
- jamoada, oiladagi tarbiya hamda o'z-o'zini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari;
- O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi;
- ta'limni boshqarish shakllari;
- shaxsga ta'lim va tarbiya berish g'oyasining paydo bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya to'g'risida SHarq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari;
- tarbiya, maktab va pedagogik fikrning taraqqiy etish tarixi;
- jahon pedagogik jarayoni;
- O'zbekiston Respublikasida pedagogika fanining rivojlanishini **bilishi, malaka hosil qilishi**

va amalda qo'llay olishi;

• ta'lim va tarbiya jarayonida milliy g'oya va ma'naviyatimizning boy meroslaridan foydalanish;

• o'z pedagogik faoliyatini rejalashtirish;

• ta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash;

• o'quvchini rag'batlantirish, uning faoliyatini nazorat qilish, iste'dodi, iqtidorini ro'yobga chiqarish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, ayni zamonda jazolashning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

- o'quvchilar bilimini baholash;
- ota-onalar, jamoa, o'quvchilar bilan yakka va guruh bo'lib ishlash;
- o'quvchilar guruhlarini boshqarish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**
- *pedagogik texnologiyalar.*

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi

o'zbek tili o'qitish metodikasi

Bakalavr:

- o'zbek tilining ta'lim tizimida tutgan o'rni;
- o'zbek tilini o'qitish metodikasining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligi;
- o'zbek tilini o'qitish metodlari va texnologiyalari tarixi;
- o'zbek tili bo'yicha yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarining xususiyatlari to'g'risida

tasavvurga ega bo'lishi;

- o'zbek tilini o'qitish metodikasining tilshunoslik fanlari bilan bog'liqligi;

- o'zbek tilini o'qitish metodlari, texnologiyalari, ularning nazariy asoslari;
- umumiy o'rta ta'lim o'zbek tili mazmuni;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'zbek tili mazmuni;
- o'zbek tilini o'qitishda didaktik printsiplar;
- o'zbek tilini o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlari;
- o'zbek tili bo'yicha darsdan tashqari ishlarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda***

qo'llay olishi;

- o'zbek tiliga o'quvchilarda mehr uyg'ota olish;
- o'zbek tilini o'qitishning metod va texnologiyalarini qo'llay olish;
- o'zbek tili bo'yicha mustaqil tahsil olishga o'quvchilarni yo'llash;
- o'zbek tili bo'yicha o'quvchilar bilimini baholay olish;
- o'zbek tili darslari, tarbiyaviy ishlar bo'yicha talab qilingan barcha hujjatlarni yuritish;
- o'zbek tili darslarini rejalashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi

Bakalavr:

- o'zbek adabiyotining ta'lim tizimida tutgan o'rni;
- o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligi;

- o'zbek adabiyotini o'qitish metodlari va texnologiyalari tarixi;
- o'zbek adabiyoti bo'yicha yaratilgan o'quv adabiyotlarining xususiyatlari to'g'risida

tasavvurga ega bo'lishi;

- o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi fanining adabiyot fanlari bilan bog'liqligi;
- o'zbek adabiyotini o'qitish metodlari va texnologiyalari, ularning nazariy asoslari;
- adabiyotni o'qitishning didaktik printsiplari;
- umumiy o'rta ta'lim adabiyot fani mazmuni;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi adabiyot fani mazmuni;
- o'zbek adabiyoti bo'yicha darsdan tashqari ishlarni ***bilishi, malaka hosil qilishi va***

amalda qo'llay olishi;

- adabiyot o'qitishda zamonaviy metod va texnologiyalarni qo'llay olish;
- adabiyotga o'quvchida mehr uyg'ota olish;
- o'quv-tarbiya jarayonida adabiyot materiallaridan foydalana olish;
- adabiyot bo'yicha bilimlarini baholash;
- adabiyotni o'qitish bo'yicha talab qilingan hujjatlarni tayyorlash;
- badiiy asarni mustaqil tahlil qilish, kitobxonlar konferentsiyasini o'tkazish;
- adabiyot darslarini rejalashtirish;
- yozma ishlarni tekshirish va baholash;
- ifodali o'qishni o'rgatish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***
- adabiyot nazariyasiga oid qoidalarni badiiy adabiyotni tahlil qilishda qo'llash;
- chet el, hamdo'stlik mamlakatlari adabiy asarlarini tahlil qila olish ***ko'nikmasiga ega***

bo'lishi lozim.

O'qituvchi nutqi madaniyati

Bakalavr:

- madaniyat va uning inson ijtimoiy hayotida tutgan o'rni;
- nutq va uning shakllari;
- nutq texnikasi;
- nutq madaniyatining boshqa tilshunoslik fanlari bilan aloqasi;
- nutqiy faoliyat to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- nutq madaniyatining nazariy asoslari;
- nutq madaniyatining kommunikativ belgilari;
- nutq madaniyati va stilistik normalari;
- nutq madaniyati va adabiy til;

- nutq madaniyatining ta'lim taraqqiyotidagi o'rni;
- ilmiy-texnik terminologiya va nutq madaniyati;
- notiqlik san'ati asoslari;
- nutq madaniyatini takomillashtirish yo'llarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda***

qo'llay olishi;

- ifodalarni to'g'ri tuzish;
- nutqni mantiqli, aniq ifodalay olish;
- soha terminlarini bilish;
- adabiy tilda sof gaplasha olish;
- ta'lim jarayoni etiketlariga rioya qilish;

notiqlik san'atini namoyish qila olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

Tilshunoslik kursi

Bakalavr:

- tilning jamiyatda tutgan o'rni;
- tilshunoslik va uning fanlar tizimidagi o'rni;
- o'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanish omillari;
- o'zbek til bilimi fanining yuzaga kelishi;
- o'zbek tilining turkiy tillardan biri ekanligi;
- o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari va uning grafik sistemasi to'g'risida ***tasavvurga***

ega bo'lish;

- tilning strukturasi va sistemasi;
- til va yozuvning paydo bo'lishi;
- jahon tillarining klassifikatsiyasi;
- tilshunoslik tarixi;
- tilshunoslik maktablari;
- til va nutq, til va tafakkur, til va axborot munosabatlari;
- hozirgi o'zbek tilining fonetik va fonologik tizimi;
- o'zbek tilining imlo va talaffuz qonuniyatlari;
- o'zbek tilining lug'at tarkibi va so'z semantikasi;
- o'zbek tilidagi turg'un iboralar;
- o'zbek tili leksikologiyasi;
- o'zbek tilidagi so'zlarning morfemik va morfologik tahlili;
- o'zbek tili morfologiyasi kategoriyalari;
- so'z yasash tizimi;
- so'z turkumlari va uning ichki kategoriyalari;
- o'zbek tilidagi so'z birikmalari sintaksisi;
- o'zbek tilining sodda va qo'shma gap sintaksisi;
- o'zbek tilidagi murakkab sintaktik butunliklar;
- o'zbek punktuatsiyasi asoslari;
- o'zbek tilining tarixiy ildizlari: qadimgi turkiy til, o'zbek tilining tarixiy grammatikasi,

o'zbek adabiy tili tarixining taraqqiyot davrlari;

- o'zbek tilining dialektal tarkibi;
- eski o'zbek yozuvi va uning xususiyatlari;
- fors va arab tillarining asosiy xususiyatlari;
- o'zbek adabiy tilining funktsional uslublari;
- matnning kommunikativ bo'laklari;
- matn sintagmatikasi;
- matnning pragmatik xususiyatlari;
- matnning lingvistik tahlili;
- o'zbek tilining funktsional uslublarini ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay***

olishi;

- o'zbek tilshunosligi fanlari orasidagi nazariy va amaliy bilimlarni bog'lay olishi;
 - o'zbek til strukturasi va sistemasini ajrata olish;
 - o'zbek tilining o'z va o'zlashgan qatlamini farqlay olishi;
 - o'zbek tilidagi matnni fonetik, leksik va grammatik jihatdan tahlil qilish;
 - o'zbek tilining jahon tillari klassifikatsiyasida tutgan o'rnini belgilash;
 - o'zbek tilining uslubiga xos asosiy xususiyatlarini farqlash;
 - tilning taraqqiyot bosqichlari va jarayonlarini farqlash;
 - sharq tillaridagi matnlarni o'qiy olish, tarjima qilish va og'zaki bayon qilish;
 - o'zbek tili grafikasi, orfoepiyasi, orfografiyasi, punktuatsiyasi qoidalarini hayotda qo'llash,
- uni o'z faoliyatida ijodiy rivojlantira bilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.***

Adabiyotshunoslik kursi

Bakalavr:

- adabiyotning filologik fan ekanligi;
- o'zbek adabiyotining taraqqiy etish omillari;
- o'zbek adabiyoti jahon adabiyotining bir qismi ekanligi;
- adabiyotda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi;
- adabiyot va san'at munosabatlari to'g'risida
- ifodali o'qishning ta'lim tizimida ahamiyati;
- ifodali o'qish va adabiy janrlar;
- ifodali o'qish va she'riy san'atlar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari;
- adabiyot nazariyasining asoslari;
- o'zbek adabiyoti va uni davrlashtirish;
- o'zbek adabiyoti janrlari taraqqiyoti;
- o'zbek klassik adabiyoti va ularning namoyandalari asarlari tahlili;
- zamonaviy o'zbek adabiyoti, uning tematik va janrlar yo'nalishi, ularning namoyandalari asarlarining tahlili;
- o'zbek adabiyoti janrlarining taraqqiyoti;
- hozirgi adabiyot vakillarining ijodi;
- o'zbek bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari;
- o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari;
- chet el adabiyoti tarixi, jahon adabiyotida taniqli bo'lgan adiblar ijodi;
- mustaqil hamdo'stlikka kirgan mamlakatlar adabiyotining xususiyatlari va ularning taniqli adiblari ijodi;
- o'zbek adabiy tanqidchiligidan paydo bo'lishi va taraqqiyoti;
- XX asr o'zbek tanqidchilik tarixi;
- milliy istiqlol davri tanqidchiligi;
- o'zbek adabiy tanqidchiligi namoyandalari;
- hozirgi adabiy jarayonning adabiy-nazariy qonunlarini;
- ifodali o'qishning predmet iva vazifasi;
- intonatsiya (ohang) komponentlari;
- ritm, temp, ritorika, tushunchalari;
- she'riy asarlar va uni ifodali o'qish;
- she'r san'atlari va ularga rioya qilgan holda o'qish;
- nasriy va grammatik janrlarning xususiyatlari va ularni ifodali o'qish;
- aruz va barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qishni ***bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qullay olishi;***
- o'zbek adabiyoti namunalari g'oyaviy-estetik jihatdan tahlil qilish;
- badiiy adabiyotning turlari va janrlarini farqlash;
- har bir adabiyot namoyandasining asarlariga davr nuqtai nazardan yondoshib baholay olish;

- o'zbek adabiyotini milliy istiqlol g'oyasi asosida tahlil qilish;
- badiiy asarni muhokama qila olish;
- ifodali o'qishni bahalay olish;
- janrlar bo'yicha ifodali o'qish namunalarini ko'rsata olish **ko'nikmalariga ega bo'lishi**

lozim;

3. Ta'lim dasturining mazmuni va komponentlari.

3.1. 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashning 4 yillik kunduzgi shakli ta'lim dasturi quyidagicha taqsimlanadi:

Nazariy ta'lim, shu jumladan oraliq va yakuniy attestatsiyalar	136 hafta
Malakaviy amaliyotlar	24 hafta
Bitiruv malakaviy ishi	7 hafta
Davlat attestatsiyasi	1 hafta
Ta'tillar	36 hafta
Jami	204 hafta

3.2. Talabani haftalik maksimal o'quv yuklanmasi 54 soat bo'lib, shundan 28 soatgacha auditoriya va qolganlari mustaqil ta'lim soatlariga taqsimlanadi.

3.3. Joriy, oraliq va yakuniy attestatsiyalarni hisobga olgan holda ta'lim dasturining umumiy hajmi 4 yillik o'quv davri uchun 9072 soatni tashkil etadi.

3.4. Ta'lim dasturini o'zlashtirishda bir qator masalalar auditoriya soati hisobiga integrallashtirilgan kurslar muammosi bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limi ko'zda tutiladi.

3.5. 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining **zaruriy mazmuni**

Ifodali o'qish praktikumi:

«Ifodali o'qish praktikumi» kursining predmeti va vazifasi, she'riy intonatsiya, ritm, temp, ritorika. She'riy, nasriy va dramatik janrlarning xususiyatlari. Aruz va barmoq vazni xususiyatlari. Ifodali o'qishni baholash.

4. Bakalavrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholash

4.1. Bakalariat yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashning sifatini nazorat qilish quyidagilarni qamrab oladi:

ichki nazorat: oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan reyting nazorat tizimi haqidagi nizom asosida o'tkaziladi;

yakuniy davlat nazorati: u davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda fanlar bo'yicha yakuniy Davlat attestatsiyalari hamda bitiruv malakaviy ishi himoyasini o'z ichiga oladi;

davlat-jamoatchilik nazorati: oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat: belgilangan tartibda Davlat test markazining Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyalar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tayyorlangan kadrlar sifatini baholash kadrlar iste'molchilari tomonidan mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

4.2. Oliy ta'lim muassasalarining majburiyatlari:

- oliy ta'lim muassasalari davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq ushbu standart talablariga rioya qilish va bakalavr tayyorlash sifatini ta'minlash;

- professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv-yordamchi xodimlar saviyasining malaka talablariga mos kelishini ta'minlash;

- har bir fanni o'quv dasturiga muvofiq ravishda zarur o'quv-metodik adabiyotlar hamda mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar materiali bilan ta'minlash;

- o'quv jarayonini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash.

5. Eslatma

5.1. Oliy ta'lim muassasasiga:

-ushbu standartda nazarda tutilgan minimal mazmunni ta'minlagan holda talabanning haftalik maksimal yuklamasini oshirmasdan o'quv materialini o'zlashtirishga ajratilgan soatlar hajmini o'quv fanlari bloklari uchun 5% oralig'ida, blokga kiruvchi o'quv fanlari uchun 10% oralig'ida o'zgartirish;

-umumkasbiy fanlar blokiga mos ravishda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy o'quv fanlarining alohida bo'limlarini chuqurlashtirib o'qitishni belgilash;

-o'quv fanlari mazmuniga, texnika va texnologiyalarning yutuqlarini hisobga olgan holda o'zgartirishlar kiritish huquqi beriladi;

-bitiruv malakaviy ish mavzusini belgilash oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan rasmiylashtiriladi.

5.2. Kurs ishlari muayyan o'quv faoliyatning bir turi sifatida ko'riladi va ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar chegarasida bajariladi.

5.3. Davlat ta'lim standartini bilish professor-o'qituvchilar tarkibini tanlov asosida saralash shartlaridan biri hisoblanadi.

Ilova

5141100 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

№	O'quv fanlari, integrallashtirilgan kurslar va bloklarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi
		soatlarda
1.	2	3
1.00	Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar	1704
2.00	Matematika va tabiiy-ilmiy fanlar	722
	<i>Matematik kommunikativ kurs</i>	340
2.01	Oliy matematika asoslari	114
2.02	Informatika va axborot texnologiyalari	226
	<i>Tabiiy-ilmiy kurs</i>	382
2.03	YOsh fiziologiyasi va gigiena. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish	216
2.04	Markaziy Osiyo geografiyasi	104
2.05	Hozirgi zamon tabiiy fanlar kontseptsiyasi	62
3.00	Umumkasbiy fanlar	3642
	<i>Psixologiya va pedagogika kursi</i>	844
3.01	Umumiy psixologiya	244
3.02	Umumiy pedagogika	370
3.03	O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi. O'qituvchining nutq madaniyati.	230
	Tilshunoslik kursi	1720
3.04	Tilshunoslik asoslari	80
3.05	Umumiy tilshunoslik	70
3.06	O'zbek tili praktikumi	104
3.07	Hozirgi o'zbek adabiy tili	500
3.08	O'zbek tili stilistikasi	74
3.09	Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi	140

3.10	Qadimgi turkiy til	74
3.11	O'zbek tilining tarixiy grammatikasi	130
3.12	O'zbek adabiy tili tarixi	74
3.13	O'zbek dialektologiyasi	74
3.14	SHarq tillari	400
	Adabiyotshunoslik kursi	1078
3.15	Adabiyotshunoslik asoslari.	80
3.16	Adabiyot nazariyasi	76
3.17	O'zbek adabiyoti tarixi.	480
3.18	O'zbek bolalar adabiyoti.	76
3.19	O'zbek xalq og'zaki ijodi.	76
3.20	Hozirgi adabiy jarayon	66
3.21	Ifodali o'qish praktikumi	74
3.21	Jahon adabiyoti	150
4.00	Ixtisoslik fanlari	666
4.01	O'zbek tilining nazariy grammatikasi	216
4.02	Milliy uyg'onish va istiqlol davri o'zbek adabiyoti	78
4.03	O'zbek tili va adabiyotini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari	78
4.04	O'zbek tilshunosligi tarixi	84
4.05	Badiiy matnning lingvistik tahlili	70
4.06	O'zbek adabiy tanqidchilik tarixi	70
4.7	Klassik she'r o'lchovi	70
5.00	Qo'shimcha fanlar	450
5.01	Qo'shimcha fanlar	450
6.00	Tanlov fanlari	160
	Jami	7344
	Malakaviy amaliyot	1296
	Bitiruv malakaviy ishi	378
	Davlat attestatsiyasi	54
	Jami	1728
	Hammasi	9072

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Tasdiqlayman”
JizzaxDPI rektori
prof.O.M.Do'smatov_____
“29” avgust 2007 y.

**IFODALI O'QISH
fani dasturi**

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Bakalavriat yo'nalishi: **5141100 – O'zbek tili va adabiyoti**

Annotatsiya.

Ifodali o'qish fani bo'yicha o'tkaziladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar talabalarning bilim doirasini kengaytirish barobarida nutq madaniyatini o'stirish va o'qituvchilik malakasini egallashiga ham katta yordam beradi.

Ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish bilan bir qatorda talabani nasriy yoki she'riy asarlarning jozibador ohanglaridan zavqlanishga, shuningdek ezgu va go'zal tuyg'ularning qaror topishiga ham sabab bo'ladi. Zero ifodali o'qish san'atining mohiyati ham insonda hayotga estetik munosabatda bo'lishi hissini tarbiyalashdan iboratdir.

Tuzuvchilar:	Soatova N.	filologiya fanlari nomzodi, dotsent
---------------------	------------	--

Taqrizchilar:	O'zRFA Til va Adabiyot instituti bo'lim boshlig'i, professor N.Karimov
----------------------	---

SamDU dotsenti A.Soliyev

Dastur A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika institutining o'quv metodik kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

2007 yil 29 avgustdagi №1-sonli majlis bayoni.

Uqtirish xati.

Ma'lumki, jamiyatning taraqqiyoti, o'sib kelayotgan yosh avlodning bilim darajasi va ma'naviy kamoloti bilan chambarchas bog'liq.

Navqiron yoshlarni har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalashda esa asrlar davomida insoniyat diliga eng oliyjanob umumbashariy g'oyalarni jo qilib, uning ma'naviy-madaniy ravnaqiga xizmat qilib kelayotgan adabiyot atalmish sirli olamning roli beqiyosdir.

Adabiyotimizning durdona asarlarida mujassamlashtirilgan odamiylik tuyg'ulari, qahramonlarning ma'naviy qiyofasi, ijodkorning badiiy dahosi, ona tilining behad go'zalliklaridan bo'ladi. Ayniqsa SHarq adabiyotining o'ziga xos uslublari asosida, yaratilgan she'riy asarlarni ifodali o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan etuk bilim va malakani talab qiladi. Binobarin, ifodali o'qish darslarida olib boriladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlar talabalarning bilim doirasini kengaytirish barobarida nutq madaniyatini o'stirish va o'qituvchilik malakasini egallashga ham katta yordam beradi.

Ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish bilan bir qatorda talabani nasriy yoki she'riy asarlarning jozibador ohanglaridan zavqlanishga, ezgu va go'zal tuyg'ularning qaror topishiga ham yordam beradi. Zero, ifodali o'qish san'atining mohiyati ham insonda hayotga estetik munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va o'stirishdan iboratdir.

Ifodali o'qish fanini unga yaqin bo'lgan boshqa bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq ravishda olib boriladi. SHu nuqtai nazardan ifodali o'qish san'atini puxta egallash maqsadida quyida nomlari ko'rsatilgan fanlarni ham o'rganish talab qilinadi:

1. Adabiyot tarixi.
2. Hozirgi zamon adabiyoti.
3. Adabiyot nazariyasi.
4. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.
5. O'zbek tili grammatikasi.
6. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.
7. Etika.
8. Estetika.

O'zbek klassik adabiyoti va hozirgi zamon adabiyotida yaratilgan eng sara asarlarni o'rganmasdan, tahlil qilmasdan turib ularni go'zal ohanglarda ifodali qilib o'qish ancha mushkul hodisa.

Mumtoz she'riyatimizga xos yuksak g'oyaviylik va etuk badiiyatdan atroflicha bahramand bo'lmoq, she'riyatga xos nafis ohanglarni to'la his qilmoq uchun esa adabiyot nazariyasi fanini suqur o'rganish zarur.

Har qanday ifodali nutq, mantiqan mukammal bo'lib, grammatik qonun –qoidalar asosida tuzilgan bo'lsagina kishida zavq uyg'otadi. SHunday ekan badiiy o'qish san'atini o'rganmoqchi bo'lgan talaba birinchi navbatda, o'zbek adabiy tili va uning grammatik xususiyatlarini to'liq o'zlashtirmog'i lozim.

So'z san'atini betakror nazokatu latofatini his qilmoq, badiiy asarlarda aks ettirilgan go'zal ideallardan hayratga tushmoq nuqtai nazaridan qaraganda ifodali o'qish san'ati

haqidagi fan-estetika bilan, nutq madaniyati, chiroyli gapirish, soʻz odobini oʻrgatish jihatlari bilan esa etika fani bilan chambarchas bogʻliqdir.

Ifodali oʻqish mashgʻulotlari ham koʻpchilik fanlar kabi ikki xil shaklda olib boriladi.

1. Ifodali oʻqishning nazariy asoslari.

2. Ifodali oʻqish amaliy mashgʻulotlari. Amaliy mashgʻulotlar maʼlum mavzu boʻyicha nazariy bilim berilgandan keyin oʻtkaziladi. Amaliy mashgʻulotlar nazariy bilimni mustahkamlash bilan birga oʻzaro bir-birini toʻldirib takomillashtirib boradi.

Ifodali oʻqish fanidan olib boriladigan amaliy mashgʻulotlar maʼlum guruhlariga boʻlib oʻtkazilsa talabalar ham bilim oladi, ham badiiy oʻqish mahoratini egallab boradi. (Har bir guruhdagi talabalar soni 15 tadan oshmasligi lozim).

Oʻqish davomida talabalar bilan adabiy kechalarda qatnashish, radio orqali beriladigan adabiy –dramatik eshittirishlari birgalikda tinglash, ayrim darslarda esa xalq artistlari va soʻz ustalari tomonidan yozib olingan plastinkalarni eshitish ham katta yordam beradi.

Ifodali oʻqish darslarining yanada samarali boʻlishi uchun magnitofondan individual foydalanishning ham ahamiyati katta.

3. Lektsiyalarning mazmuni

Mavzu nomeri	Boblar boʻyicha leksiylar nomi va mazmuni	Mustaqil oʻrganish uchun tavsiya etilgan mavzular
1.	Kirish Ifodali oʻqish tarixi. BADIY OʻQISH TARIXIDAN. Badiiy oʻqish tarixining juda qadim zamonlarga borib taqalishi. Ogʻzaki soʻz sanʼati –badiiy adabiyot paydo boʻlishi bilan uning ogʻzaki ijrochiligi, ifodali u kishi ham maydonga kelganligi. Ifodali oʻqishning sinkretik (qorishiq) xarakter kasb etishi masalasi. Soʻz sanʼatining dastlabki yirik namunasi “Avesto” haqida qisqacha maʼlumot. Avestoning ijrochilari kohinlar toifasining soʻz sehri bilan xalq orasida katta eʼtibor qozonishi. Tarixiy taraqqiyot davomida adabiyot bilan birga badiiy ijrochilik sanʼatining ham rivoj topishi. SHarqda, jumladan, Oʻrta Osiyoda badiiy-ilmiy ijodning taraqqiyoti, “Qurʼoni karim”ning keng tarqalishi. “Qurʼonni targʻib qilish bilan bogʻliq holda vaʼzxonlik sanʼatining rivojlanishi. Buyuk allomalar Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al Xorazmiy, Mahmud Qoshgʻariy va Abulqosim Zamahshariylarning til, lugʻat. Grammatika va mantiqshunoslikka bagʻishlangan asarlarida badiiy (ifodali) oʻqishga doir fikrlarning zikr etilishi.	

YAqin va O'rta SHarqda badiiy o'qish. Badiiy o'qish va adabiyot. Badiiy o'qish va notiqlik. O'rta Osiyoda roviylar toifasining paydo bo'lishi. Roviylar haqida qisqacha ma'lumot.

Adabiyotning taraqqiyoti natijasida roviylar san'atining turli tarmoqlarga bo'linib ketishi; xususan, qissaxonlik, voizlik badihago'ylik, bazlago'ylik, dostonxonlik, qasidaxonlik, g'azalxonlik san'atining shakllanishi.

Badiiy so'z san'ati ijrochiligining taraqqiy etishida Husain Voiz Koshifiy, Muin Voiz Xiraviy, Xoja Muayyad Mehnagiy, Mulla Kalon Voiz Samarqandiy, Qozi O'shiy, Mavlono Riyoziy, Bahoviddin Valad, Jaloliddin Rumi kabi mashhur so'z san'atkorlarining xizmatlari.

O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida chiroyli nutq, so'zlash odobiga bo'lgan alohida e'tibor.

Qadimgi sharq pedagogikasining mumtoz namunasi hisoblangan "Qobusnoma"da so'zlash odobi va madaniyati haqidagi ibratli fikrlar. (Asarning "Suhandonlig" bilan baland martabali bo'lish zikrida" deb nomlangan 7-bobini alohida o'rganish va tahlil qilish.).

Ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarda so'z ta'rifi, inson nutqi kabi masalalarga bag'ishlangan alohida boblar ajratilganligi; Xususan, adibning "Muhokamatul lug'atayn", "Nazmul -javohir", "Mahbubul -qulub" kabi asarlaridagi ta'sirchan nutq va so'zlash obodi haqidagi qimmatli fikr –mulohazalari.

Badiiy o'qish va she'riy vazn. Badiiy o'qish san'ati rivojida Alisher Navoiy, Bobur va ulardan keyingi boshqa shoirlarning o'rni va roli. Masjid va madrasalarda qiroat kitobi va qiroatxonlikning o'rgatilishi –ifodali o'qishga alohida e'tibor qaratilganligi masalasi.

Hamza, Abdulla Avloniy va Sadriddin Ayniy tomonidan yangi "usuli jadid" maktablarining ochilishi va ularning ifodali o'qish san'atining rivojidagi roli.

YUnonistonda notiqlik san'ati **QADIMGI YUNONISTONDA NOTIQLIK SAN'ATI**

Qadimgi dunyo notiqligi va uning taraqqiyoti. YUnonistonda notiqlik san'atining vujudga kelishi va uning sabablari.

Mazkur san'atining kundalik hayotdan tobora keng o'rin egallay borishi. Sud ishlarda qo'llanadigan tartiblar natijasida nutq san'atini egallagan kishilar –"logograf"larning paydo bo'lishi. Notiqlik san'atining rivojlanishida ularning roli.

Mukammal va chiroyli soʻzlash sanʼatining asta-sekin adabiy tur sifatida rivojlanib borishi. Badiiy adabiyotning ravnaqida uning roli.

Antik dunyo notiqlik sanʼatining buyuk namoyondalari – Aristotel, Demosfen, TSitseron va Mark Fabiy Kvintilianlarning notiqlik sanʼatini rivojlantirishdagi buyuk xizmatlari.

Aristotelning notiqlik sanʼatini egallash yoʻlidagi ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Uning “Ritorika” (chiroyli soʻzlash –nutq madaniyati nazariyasi) haqidagi asarlari. Bu asarda notiq nutqining mantiqiy va shakliy tuzilishiga katta ahamiyat berilganligi.

Demosfenning notiqlik sanʼatini egallash yoʻlidagi qiyinchiliklari. Vasiylik bilan uzoq davr sudlashish Demosfen uchun bir maktab vazifasini oʻtaganligi. Nutqidagi kamchiliklarni yoʻqotish borasida qilgan mehnatlari va uning zoe ketmaganligi. Demosfenning mohir notiq boʻlib etishishi va “Oltin gulchambar” bilan taqdirlanishi.

TSitseronning notiqlik sanʼatini egallash borasidagi faoliyati. Uning notiqlik sanʼati nazariyasida yangi (Osiyo va Attika usullari asosida) uslubni kashf etishi, bu uslub orqali katta muvaffaqiyatlarga erishishi. TSitseronning “Oratorlar haqida”, “Brut” va “Orator” nomli asarlarning yaratilishi. Bu asarlarning notiqlik sanʼati tarixida tutgan oʻrni.

Aristotel, Demosfen va TSitseronlardan soʻng notiqlik sanʼatining birmuncha vaqt davomida inqirozga yuz tutishi.

Oʻrta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab (XI-XII asrlar) chiroyli soʻzlash universiteti deb nomlangan notiqlik sanʼatining rivojlanishi. Uning tashkilotchilari YAn Rus, Duns Skott va boshqalar.

Oʻzbek notiqlik tirixi.

OʻZBEK NOTIQLIK TARIXIDAN

YAqin va Oʻrta SHarqda notiqlik sanʼati. Notiqlik sanʼati va vaʼzxonlik. NOTiqlik sanʼatida diniy va dunyoviy tamoyillar.

Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va ijodi haqida maʼlumot. Uning yuksak axloq targʻibotchisi, chiroyli ovoz sohibi sifatida Alisher Navoiy va Xondamir asarlarida zikr etilishi.

Husayn Voiz Koshifiyning “Anvori Suxayliy”, “Axloqi Muxsiniy”, “Sabo”, “Mahzanul insho”, “Koshifiya”, “Xotamnoma”, “Matlaʼul anvor” kabi asarlarining maʼrifiy ahamiyati. Mazkur asarlarda vaʼz, suxangoʻylik, til, suhbat obobi kabi masalalarning yoritilishi. Xoja Muayyad Mehnagiyning voizlik faoliyati haqida qisqacha maʼlumot.

“Majolisun nafois”da Alisher Navoiyning Voiz Xoja Muayyad Mehnagiy va mavlono Riyoziy haqidagi qimmatli fikrlari. Mavlono Riyoziyning voizlik mahorati haqida ma’lumot.

O’rta Osiyoda etishib chiqqan Voiz Muhammad Rafi’ (Abvobul jinon), Voiz Qazviniy (Zilolu maqol). Mulla Kalon Voiz Samarqandiy (Ravzatul Voizin), Qozi O’shiy (Miftoxun najjoh) kabi mohir so’z ustalarining inson axloqini tarbiyalash va notiqlik nazariyasini yaratishdagi bebaho xizmatlari.

Notiqlik san’ati rivojida o’zbek shoirlarining o’rni va roli.

Ta’sirchan nutq, so’zning qadri va undan o’rinli foydalanish haqida YUsuf Xos Hojib, Ahmad YAssaviy, Ahmad YUgnakiylarning asarlarida keltirilgan ibratli fikrlar.

Alisher Navoiy ijodi turkiy tilda eng go’zal va ta’sirchan nutq tuzishning yuksak namunasi ekanligi. Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy, Muqumiy, Fitrat, Furqat, Behbudiy, CHo’lpon, A.Qodiriy asarlarida bu an’ananing davom ettirilishi.

IFODALI O’QISH MADANIYATI VA NUTQ ODOBI.

Adabiy til normalarini to’liq egallash va unga rioya qilish ifodali o’qish san’atini o’rganishning asosiy shartlardan biri ekanligi.

Mahalliy sheva va dealektlardan holi bo’lgan mantiqan mukammal, aniq va ravon, jozibador gapirish malakasini shakllantirish masalasi. Bu haqda Aristotel va Kaykovus fikrlari.

Xalq maqollari va ta’birlari, shuningdek, badiiy tasvir vositalardan unumli va o’rinli foydalanish nutqning ta’sirchanligi va ifodaviyligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri ekanligi. Bu masalani U.Nosirning “Naxshon” dostonidan olingan she’riy parchani o’qish va tahlil qilish orqali yanada oydinlashtirish.

Ifodali o’qish jarayonida so’zlovchining faol nutqiy harakati pauza, ohang (ovoz tovlanishlari) urg’u va turli xil imo-ishoralar, harakatlar, ma’noli ko’z qarashlari, fikrning tinglovchiga etib borishida katta ahamiyat kasb etishi. Bu hodisani A.Oripovning “Jannatga yo’l” asaridan parcha o’qish misolida kuzatish.

O’qituvchi nutqiga qo’yiladigan talablar:

Nutqning to’g’riligi, aniqligi, mantiqan mukammalligi, ovozning tiniqligi, jozibador va jarangdorligi kabi masalalar.

Asar muallifining g’oyaviy-badiiy niyati, asarda mujassamlashgan his-tuyg’ular, qahramonlarning ma’naviy

qiyofasi, ijodkorning badiiy dahosini tinglovchi qalbiga etkazish o'qituvchining ifodali o'qish mahorati bilan chambarchas bog'liq ekanligi.

NUTQ ODOBI

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezon ekanligi. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham qadimiy va boy axloqiy merosga ega ekanligi. SHarqning ulug' donishmandlari asarlarida bu masalaga alohida e'tibor berilganligi.

Ifodali o'qish madaniyati va nutq odobini shakllantirishda badiiy adabiyotning beqiyos ahamiyati.

O'zbek adabiy tili va ifodali o'qish san'atining rivojiga bebaho hissa qo'shgan o'zbek madaniyatining atoqli namoyondari: A.Hidoyatov, SH.Burxonov, O.Xo'jaev, S.Eshonto'raeva, R.Hamroev, X.Umarov, T.YUnusxo'jaeva, Q.Maxsumov, A.Rafiqov va boshqalar.

OG'ZAKI NUTQ MADANIYATINI O'STIRISHDA KISHI FIZIOLOGIYASINING ROLI. RUTQ VOSITALARI

Nafas. Tovush hosil qilishda nafas asosiy vositalardan biri ekanligi. Nafas olish va nafas sarflashning o'ziga xos me'yori. Nafas olish uchun burun bo'shlig'i, ovqat yo'li, xiqildoq, kekirdak va o'pkaning roli.

Nafas ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ekanligi. Ifodali o'qishda noo'rin nafas olishning zarari. To'g'ri nafas olish inson ish faoliyatining asosiy te'yori. Nafas olish faoliyatini yaxshilash omillari. Turli nafas mashqlarini bajarish.

Ovoz ifodali o'qishning asosiy vositasi ekanligi. Ovozning paydo bo'lishida xalqasimon, piramidasimon va qalqonsimon tog'aylarning roli. Tovush boylamlari va ularning harakati natijasida tovushning hosil bo'lishi. Ovoz hosil qilishda fonemalarning roli. Unli va undosh fonemalarning ovoz hosil bo'lishidagi o'ziga xos xususiyatlari.

Tembr hosil bo'lishda hiqildoq va og'iz bo'shlig'ining ahamiyati. Ovozning baland yoki past bo'lishida tovush apparatining roli. YOqimli va yoqimsiz un –tovushlarning hosil bo'lishida qattiq, tanglay va yumshoq tanglayning roli.

Badiiy asarlarni ifodali o'qishda ovozning turli xil ohangda ishlatilishi. Matn o'qitilayotgan noto'g'ri diapazon va balandlikda ovozga kuch berilsa, tovush apparatining ishdan chiqishi. Uning oldini olish yo'llari. Xasta ovozni bir me'yorga, ya'ni o'rtacha me'yorga olib kelganda unli

	tovushlarni turlicha talaffuz etib, mashq qilish yo'llari. So'z va tovushlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rgatishda tez aytilishning ahamiyati. DIKTSIYA. (TALAFFUZ TARZI) Diktsiya –notiq va adabiyot zqituvchisi nutqining asosiy qurollaridan biri. Diktsiya nutq organlari va orfoepiya bilan bog'liqligi. Diktsiyaning og'zaki va yozma nutqdagi farqlari. Diktsiyaning nutq madaniyatini o'stirishdagi asosiy vazifalari. Diktsiyaning to'g'ri, burro va aniq talaffuz etishdan iborat ekanligi. Badiiy asarlarni ifodali o'qiganda nutqdagi ba'zi bir nuqson va kamchiliklarni bartaraf etishda diktsiyaning ahamiyati. FONETIK AKUSTIKA (ESHITISH) Fonetik akustika haqida ma'lumot. Nutq apparati (o'pka, bronx va traxeya; hiqildoq, tomoq, og'iz, burun bo'shliqlari, til va tanglay, lab va tish) vazifasi. Tovushlarning vujudga kelishida nutq apparati (organlari)ning faoliyati. Unli fonemalar haqida ma'lumot. Ularning bir-biridan farqi. Unli tovushlar (i,e,f,o,u,u)ning og'zaki va yozma nutqdagi talaffuzi. Undosh fonemalar haqida ma'lumot. Ularning aksustik jihatdan bir-biridan ikki katta guruhga ajralishi: shovqinlilar va sonorlar. 1. SHovqinlilar: p-b, t-d, k,g,k, (portlovchilar); f-v, s-z, sh-j, x, g, x, (sirg'aluvchilar) hamda ularning yozma va og'zaki nutqdagi talaffuzi. 2. Sonorlar: t, ng, i, l, r tovushlarning yozma va og'zaki nutqdagi talaffuzi.	
--	--	--

3. AMALIY (seminar) MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING MAZMUNI

Seminar mashg'ulotlar nomeri	Boblar bo'yicha seminar mavzusining nomi va mazmuni
1.	IFODALI O'QISH VOSITALARI URG'U Urg'u haqida umumiy ma'lumot. Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalardan biri ekanligi va uning o'ziga xosligi. Urg'uning xilma-xilligi. Urg'uning ifodali o'qishda qo'laniladigan zaruriy turlari. (So'z urg'usi va mantiqiy urg'u): A) So'z urg'usi haqida ma'lumot. Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z urg'usining vazifasi. B) Mantiqiy –logik urg'u haqida ma'lumot. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda logik urg'uning ahamiyati (har qanday mustaqil

so'zlarning ham urg'usiz to'la ma'no bera olmasligi). Ifodali o'qishda, ayniqsa muallif maqsadini bayon etishda mantiqiy urg'uning ahamiyati. Urg'u turlari bilan borliq bo'lgan amaliy mashqlar.

PAUZA (NUTQIY TO'XTAM)

Pauza haqida umumiy ma'lumot. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda pauzaning o'ziga xos o'rni. Pauzaning xilma-xilligi. Pauzaning ifodali o'qishda qo'llaniladigan asosiy turlari (grammatik pauza, mantiqiy pauza, psixologik pauza).

A) Grammatik pauza haqida ma'lumot. Uning ifodali o'qishda asosiy texnik vositalardan biri ekanligi. Hozirgi zamon adabiy tilida grammatik pauzaning o'rni;

B) Mantiqiy pauza haqida ma'lumot. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda mantiqiy pauzaning ahamiyati;

INTONATSIYA (OHANG)

Intonatsiya haqida umumiy ma'lumot. Badiiy asarlarning g'oyaviy, emotsional xususiyatlarini ochishda intonatsiyaning ahamiyati. Intonatsiyaning xilma-xilligi. Intonatsiya so'zlovchining ichki kechinmalari, kayfiyati, xarakter-xususiyati va turli xis-tuyg'ularini ifodalash uslubi ekanligi. Nutqning yoqimli, silliq va ravon bo'lishida, nutq qismlarining bir-biri bilan bog'lanishida intonatsiyani ahamiyati. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda intonatsiyaga ahamiyat bermaslik natijasida asar mazmunining noo'rin talqin etilish hollari.

TEMP VA RITM

Temp haqida umumiy ma'lumot. Nutq tempi (sur'ati) ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ekanligi. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda nutq sur'atining ahamiyati. Temp (o'qish sur'ati) –bu nutqda hayotni aks ettiruvchi, uning his-hayajonli nafasi ekanligi.

Ritm haqida umumiy ma'lumot. Badiiy asarda ritmning xilma-xilligi va uning turlari. Ifodali o'qishda ritmning ahamiyati. Temp va ritmning badiiy asarni ifodali o'qishda birga ishlatilishi.

BADIIY ASARLARNI IFODALI O'QISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Badiiy asarlarni ifodali o'qishdan asosiy maqsad asar mazmunini, muallifning fikr mulohazalarini, qahramonlarning ichki hissiyotlarini tinglovchiga ravon va tushunarli, ta'sirchan qilib etkaza olishdan iborat ekanligi. Asarni ifodali o'qish uning janr xususiyatlari va kompozitsion tuzilishiga ko'ra belgilanishi. Asarning g'oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va xususiyatlarini chuqur o'rganish ifodali o'qishning asosiy omillaridan biri ekanligi.

BARMOQ TIZIMIDAGI SHE'RLARNI IFODALI O'QISH.

Vazn –badiiy shaklning eng muhim qismlaridan biri ekanligi.

Asar mazmuni, ijodkor dilini to'ldirayotgan muammolar, badiiy timsollarda mujassamlantirilayotgan umubashariy g'oyalarni jozibador, ta'sirchan qilib ifodalashda vaznning ahamiyati.

Barmoq, vazni haqida ma'lumot. Barmoq sistemasi o'zbek she'riyatining eng qadimiy, eng ommaviy va eng xalqchil ko'rinishlardan biri ekanligi. Ushbu vazndagi she'rlarda hijo va uning ifodali o'qishdagi roli.

She'riy asarlarni ifodali o'qishda turoq va uning xususiyatlari.

Barmoq tizimidagi she'rlar vaznini hosil qilishda turoqning asosiy komponentlardan biri ekanligi. She'rda turoqlar sonining bir va bir nechtdan iborat bo'lishi.

Barmoq vaznidagi she'rlar ifodali o'qilganda ularning erkin va aruz vaznida bitilgan asarlarning o'qilishidan farq qilishi. She'riy mashqlar:

E.Vohidov: "Rubobim tori ikkidur...", O'zbek xalq qo'shig'i: "Ro'molim bor...", SHayxzoda: "Ko'za olib chiqqan yaxshi qiz...", A.Oripov: "Bahor chog'i edi", Pushkin: "bahorim yillari", A.Barto: "Hoy irkit qiz...", Maxtumquli: "Ayrilma" kabi she'rlarni o'qish.

ERKIN VAZNDAGI SHE'RLARNI O'QISH.

Erkin she'r vazni haqida umumiy ma'lumot. Bu vazndagi she'riy misralarning hijolar soniga emas, balki rang-barang ritmi, ritmning turlanib turishi va pauzalar bilan farq qilishi. Erkin vazndagi she'rlarni ifodali o'qishda hijo va turoqlarning bir xilda takrorlanmasligi xususiyatlari.

So'zlashuv tiliga yaqinligi, fikrning jo'shqinligi, publitsistik ruhda bo'lishi erkin vazndagi she'rning asosiy belgisi ekanligi.

Bu turdagi she'rlarni ifodali o'qishda she'riy matnni puxta o'rganish hijo va turoqlarni to'g'ri ajrata bilish, pauza va urg'uli so'zlarni aniqlay olishning ahamiyati. Erkin vaznda yaratilgan she'rlarni o'qib nazariy ma'lumotlarni yanada chuqurlashtirish. H.Olimjonning "Baxtlar vodiysi", M.Tursunzodaning "Osiyo ovozi", G'.G'ulomning "Sen etim emassan" kabi she'rlarni o'qish.

OQ SHE'R (QOFIYASIZ SHE'R)LARNI O'QISH.

Oq she'r haqida ma'lumot. Oddiy so'zlashuv tiliga yaqin bo'lishi, poetik ko'tarinki ruhda yaratilishi oq she'rga xos xususiyatligi. Qofiyasiz nazmiy asar – oq she'rning barmoq sistemasiga asoslanishi.

O'zbek she'riyatida M.SHayxzodaning "CHorak asr devoni", "Urug' socharlar" she'rlari va "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi oq she'r namunasi ekanligi. Usmon Nosir va SHavkat Rahmonlarning oq she'rlaridan namunalar o'qish.

Rus adabiyoti klassiklari A.S.Pushkinning "Boris Godunov", "Suv parisi" asarlari, M.YU.Lermontovning "Kalashnikov haqida qo'shiq", Nekrasovning "Rusiyada kim yaxshi yashaydi" asarlari oq she'rning go'zal namunasi ekanligi. Mazkur asarlardan parchalar

o'qish.

NASRIY SHE'RLARNI O'QISH

Nasriy she'r haqida ma'lumot. Qofiya, ichki qofiya, vazn va ritm kabi she'riy unsurlarning mavjudligi nasriy she'rning asosiy xususiyati ekanligi. Bunday nasriy she'rlar klassik adabiyotda saj' yoki nasriy musajja' nomi bilan yuritilishi.

Nasriy she'r o'zbek klassik adabiyotiga xos bo'lib uning hozirgi zamon adabiyotida ham yangi shaklda davom etayotgani. Nasriy she'r namunalaridan o'qish. Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub". A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon". M.Ismoiliyning "Farg'ona tong otguncha", O'.Umarbekovning "Bolgar qo'shiqlari" asarlaridan nasriy she'rda bitilgan o'rinlarini o'qish.

ARUZ VAZNIDAGI SHE'RLARNI O'QISH.

Aruz vazni haqida umumiy ma'lumot. Aruz vaznidagi asarlarning boshqa vaznda yaratilgan asarlardan tubdan farq qilishi. Aruzda hijo. Ularning qisqa (V), cho'ziq (-), o'ta cho'ziq (=)bo'lishi.

Kil-ma-g'il-zin hor-iz-hor eh-ti-yoj

Kim-a-ziz-el ni-qu-lur-xor eh-ti-yoj.

So'r-ma-ho-lim ni-ki bo'l-dum bur-no-g'i-din zor-roq

Jism-jon-din zo-ru jo-nim jism-din af-gor-roq.

Aruz vaznidagi she'rlarning hijolarini aniqlashda ularning faqat yozilishiga qarab emas, balki o'qilishiga, ohangiga, qanday talaffuz qilinishiga qarab aniqlanishi.

Rukn haqida umumiy ma'lumot. Ruknlarning hijolar miqdori va qisqa cho'ziqligiga qarab sakkiz aslga bo'linishi. Bahrlar va ularning tarmoqlari, ruknlarning guruhlashib kelishida bahrlarning roli. Aruz vaznidagi ayrim asarlarni ikki xil vaznda ham o'qish mumkinligi (Ogahiyning "Keldilar" g'azali misolida ko'rish).

A.Navoiy asarlari o'zbek klassik she'riyatidagi aruzning barcha masala va xususiyatlarini, bahr va vaznlarni o'rganishda bosh manba ekanligi. A.Navoiy asarlari bo'yicha mashq qilish – aruzni o'rganish, aruzda she'r o'qish malakasini oshirishda g'oyat ahamiyatga ega ekanligi.

"Hazoyinul-maoniy"da qo'llanilgan bahrlar. SHu bahrda yaratilgan g'azallarning ifodali o'qilishi. "Xamsa", "Lisonut-tayr" asarlarining vazni va ularning paradigma xususiyatlari.

MASALNI IFODALI O'QISH

Masal janri haqida umumiy ma'lumot. Masal turlari. Unda xalq iboralari, frazeologik birikmalarning ishlatilishi.

Masalni ifodali o'qishning boshqa janrlarda yaratilgan asarlardan tubdan farq qilishi. SHe'riy va nasriy masalalarni o'qishning o'ziga xos xususiyatlari. Masalni rollarga –majoziy obrazlar qiyofasiga kirib o'qish.

Klassik adabiyotimizda yaratilgan masallarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari (masalan: "Maymun bilan Najjor", "Toshbaqa bilan CHayon" va boshqa asarlar asosida).

NASRIY ASARLARNI IFODALI O'QISH.

Adabiy asarlarning badiiy xususiyatlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar, yozuvchining dunyoqarashi va maqsadi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodali o'qishning ahamiyati va o'ziga xosligi.

Badiiy asarlarni, xususan nasriy asarni ifodali o'qishda, so'zlovchining nutqiy harakati, pauza, ohang, urg'u, turli xil imo-ishoralar fikrning tinglovchiga tez etib borishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etishi.

ERTAKLARNI IFODALI O'QISH.

Ertaklarning o'ziga xos xususiyatlari va turlari. Ertaklarda an'anaviy obrazlar. Ertaklarni unda ishtirok etuvchi qahramonlar qiyofasiga kirib o'qish. Ertakning zachini –an'anaviy muqaddimasini ifodali o'qishda o'ziga xos ohang va ritm. Ifodali o'qishda ertak qahramonlarining ruhiy –fizik holatini bera bilish.

Xalq ertaklarining badiiy xususiyatlari va g'oyaviy mazmunini chuqur tushunishda, o'quvchilarning axloqiy –estetik qarashlarini shakllantirishda ifodali o'qishning ahamiyati.

HIKOYALARNI O'QISH.

Hikoya haqida qisqacha ma'lumot. Asardagi muallif nutqi, joylarning tavsifi, dialoglar va qahramonlarning ichki kechinmalari aks ettirilgan o'rinlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari.

Hikoya mazmuni va turlari (sokin, dramatik, his-hayajonli)ga qarab ifodali o'qishning ham o'zgarishi. A.Qahhor "Adabiyot muallimi", "O'g'ri", S.Ahmad "Ta'zim" hikoyalarini o'qish.

QISSALARNI O'QISH.

Qissa haqida umumiy ma'lumot. Qissalarning turlari va ularni ifodali o'qishdagi o'ziga xosliklar. Asar syujeti va uning tarkibiy qismi bo'lgan prolog, tugun, rivojlanish, kulminatsiya, echim va epilog kabi faktorlarni puxta o'rganib chiqish masalasi. Qissada tasvirlangan hayot va tabiat manzaralarini xilma-xil obrazlar dunyosining o'ziga xosligini ta'sirchan o'qish va jozibador nutq orqali aks ettirish ifodali o'qishning asosiy sharti ekanligi. Asarni ifodali o'qishning inson ma'naviy olami va estetik tuyg'ularini boyitishdagi beqiyos ahamiyati.

CH.Aytmatov "Birinchi muallim", "Bo'tako'z", "Jamila", A.Qahhor "Sinchalak", L.Tol'stoy "Xoji murod" kabi qissalarni o'qish.

ROMANLARNI O'QISH.

Roman haqida umumiy ma'lumot. Roman janridagi asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari (murakkabliklari). Roman turlari (tarixiy, harbiy, fantastik va boshqa). Ularni ifodali

	o'qishdagi o'zgachaliklar. Ifodali o'qish uchun romandan parcha tanlash printsipli. Nasriy asarlarni ifodali o'qishda tinish belgilari –urg'u, pauza, ohang va boshqalarning ahamiyati. Romanda personajlar nutqining turli ko'rinishlari –monolog, diolog va voqeani bayon etish usullari –chekinish, tavsif, tabiat tasviri (peyzaj) va boshqalarni ifodali o'qishning o'ziga xos jihatlari. Romandan parchalarni ifodali o'qiganda asarda ishtirok etayotgan inson qalbining tavlaniishlarini butun nozikligi bilan aks ettirish mahorati. Buning uchun asar ishtirokchilaridan har birining tabiatini, xulq atvorini, madaniyat saviyasini, kishilar bilan o'zaro munosabatini, jamiyat hayotida tutgan o'rnini chuqur o'rganishning alohida ahamiyat kasb etishi. Badiiy asarlarni ifodali o'qishning inson ma'naviy –ruhiy olamini boyitish va estetik go'zallik ruhida tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati. “Ufq”, “Asrga tatigulik kun”, “Anna karenina”, “Urush va tinchlik”, “Marten Iden”, “O'tgan kunlar”, “Diyonat” va boshqa romanlarni o'qish. DRAMATIK ASARLARNI IFODALI O'QISH. Drama haqida umumiy ma'lumot. Dramatik turlar. Dramatik asarlarning boshqa badiiy asarlarni ifodali o'qishdan farqi. Dramatik asarlarda nutqning aniqligi, uslubi, temp va ritm, pauza va ohangning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi. “Boy ila xizmatchi”, “Ayajonlarim”, “Oltin devor”, “Kelinlar qo'zg'oloni”, “Alisher Navoiy”, “Mirzo Ulug'bek”, “SHoh Edip” kabi dramatik asarlarni o'qish.
--	---

4. O'QUV YUKLAMASI HAJMINING MASHG'ULOT TURLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHI (soatlarda)

Bakalavriat yo'nalishining shifri	Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot (seminar)	Laboratoriya ishi	Mustaqil ish	Kurs ishi
V 140700	26	10	14	2	-	-

ADABIYOTLAR

O'QUV QO'LLANMALARI:

- Oripov Q., Obidova M. “Ifodali o'qish”. “O'qituvchi” T., 1994.
- Jo'raev K. “Ifodali o'qish va hikoya qilish”, “O'qituvchi” T., 1968.
- Inomxo'jaev S. Zunnunova A. “Ifodali o'qish asoslari”. “O'qituvchi” T., 1978.
- Inomxo'jaev S., “badiiy o'qish asoslari”. T., “O'qituvchi”, 1981.
- Hojiahmedov A. “Maktabda aruz vaznini o'rganish”. “O'qituvchi”T., 1995.
- Qudratov T. “Nutq madaniyati asoslari”. “O'qituvchi” T., 1993.
- Hojiahmedov A. “O'zbek aruzi lug'ati”. “SHarq” nashriyoti. T., 1998.
- A.Fitrat. “Aruz haqida”. “O'qituvchi” T., 1997.
- Hojiahmedov A. “Aruz vaznidagi asarlarni ifodali o'qish”. T., 1999.

10. Mallaev N.M. "Navoiy lirikasi". "O'qituvchi". T., 1980. A.Navoiy "Topmadim" G'azallar. G'.G'ulom nashriyoti. T., 1988.
11. Lutfiy. "Sensan sevarim.." G'.G'ulom nashriyoti. T., 1987. Bobur "Tanlangan asarlar". "Uzfa" T., 1958.
12. U.Nosir. "Unutmas meni bog'im". Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1988.
13. Maxtumquli. "Saylanma she'rlar". "YO'zuvchi". T., 1995. Pushkin A.S "Tanlangan asarlar" (SHe'rlar, dostonlar) G'.G'ulom nashriyoti. T., 1979.
14. Lermontov M.YU. "Tanlangan asarlar" (SHe'rlar, dostonlar) G'.G'ulom nashriyoti. T., 1978.
15. Aksenov V. N. "Iskusstvo xudojestvennogo slova", M. Izd-vo APN RSFSR, 1962.
16. Argo A. "Zvuchit slovo..." M. Detgiz. 1962.
17. Argo A. "Vostorgi i vdoxnoveniya" M.Detskaya literatura. 1965.
18. Brajenok M.N. Cherkashin R.A. "Vyrazitel'noe chtenie" izd-vo Xark'ovskogo Unv-ta. 1960.
19. Blinov I.YA. «Vyrazitel'noe slova uchitelsya slovesnika» Ugpedgiz M.1963.
20. YAzovitskiy E.V. "Vyrazitel'noe chtenie kak sredstvo esteticheskogo vospitaniya" L.1963.

UMUMIY NAZARIY ADABIYOTLAR:

NOTIQLIK SAN'ATI VA NUTQ MADANIYATIGA DOIR.

1. Husain Voiz Koshifiy. "Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati". "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyoti. T.1994.
2. Aristotel. "Poetika", G'.G'ulom n. T., 1980.
3. Ahmedov A. Notiqlik san'ati". "O'zbekiston" T., 1967.
4. Afzalov M. "YUz og'iz dono so'z", "Fan va turmush" jurnali. 7-son 1966.
5. Inomxo'jaev S. "O'tmish sharq notiqligi" "O'zbekiston" nashriyoti, T., 1972.
6. Sayfiddinov A. "Og'zaki nutqda pauzaning ahamiyati". "Tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar". To'plam. "Fan". T., 1965.
7. Rustamov A. "So'z xususida so'z", "YOsh gvardiya" T., 1987.
8. Salomov G'. "YOzma nutq madaniyatiga doir". "O'zbekiston madaniyati" gazetasi. 1957, 19 iyul
9. Samadov K. "A.Navoiyning nutq madaniyati haqida", "Sovet maktabi" jurnali 1-son 1962.
10. Sodiqova M. "Nutq madaniyati haqida". "O'zbekiston madaniyati" gazetasi. 1964, 26-sentyabr.
11. Xo'jaeva L. Lektor nutqida ifoda vositalari", "Lektorlik mahorati" to'plam. O'zdatnashr. T., 1964. Qo'chqortoev I. "So'zga ko'rki kimlar beradi", "Fan va turmush" jurnali 7-son, 1965.
12. G'afurov X. "Og'zaki nutq madaniyati haqida", "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 11 may 1957.
13. Aristotel. "O stile oratorskoy rechi", Politizdat, M, 1959.
14. TSitseron M.T. "Tri traktata ob oratorskom iskusstve", M. "Nauka", 1972.
15. Aktual'nye problemy kul'tury rechi. M. "Nauka", 1970.
16. Aksenov V. "Iskusstvo xudojestvennogo slova" M, 1960.
17. Blinov I.YA. "O kul'ture rechi" M, 1958.
18. Kazanskiy B.V. "V mire slov" L, 1958.
19. Timofeev B.N. "Pravil'no li my govorim?" L. 1963.
20. CHernozatonskaya E.P. «Beregite golos –orujie lektora, pevtsa, pedagoga». L, 1965.
21. CHukovskiy K.I. «Jivoy kak jizn». M, 1962.
22. Abulqosim Mahmud az –Zamahshariy. "Nozik iboralar", "Kamalak", T., 1992.
23. Kaykovus "Qobusnoma" "O'qituvchi", T. 1986.

ADABIYOT NAZARIYASI VA UMUM ADABIYOTSHUNOSLIKKA DOIR.

1. "Adabiyot nazariyasi", 2-tomlik, "Fan". T. 1978, 1979.
2. Boboev T. "Adabiyotshunoslikka kirish".
3. Zunnunov A, Xotamov N. "Adabiyot nazariyasidan qo'llanma", "O'qituvchi", T., 1978.

4. Nosirov O, Jamolov S, Ziyovuddinov M. "O'zbek klassik she'riyati janrlari . "O'qituvchi", T., 1979.
5. Rustamov A. "Aruz haqida suhbatlar", "Fan" T., 1972.
6. Homidiy H. Abdullaeva SH, Ibrohimova S. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati". "O'qituvchi", 1970.
7. A.SHukurov, N. Xotamov, SH.Xolmatov, N.Mahmudov, "Adabiyotshunoslikka kirish". "O'qituvchi" T., 1984.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari prorektori
_____ D.Akbarov
“_____” avgust 2010-y.

**IFODALI O'QISH
fanidan ishchi o'quv dasturi**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Bakalavriat yo'nalishi: **5141100 – O'zbek tili va adabiyoti**

Qo'qon -2010

Ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish bilan bir qatorda talabani nasriy va she'riy asarlarning jozibador ohanglaridan zavqlanishga, ezgu va go'zal tuyg'ularning qaror topishiga yordam beradi.

Tuzuvchi:

X.Fozilova, F.Qurbonova

KELISHILDI:

O'quv bo'limi boshlig'i:

Fakultet dekani:

Kafedra mudiri:

A.Turg'unov

R.Tojiboyev

B.Abdurahmonova

1. Kirish

1.1.Ifodali o'qish fanining maqsad va vazifalari.

Ifodali o'qish kursining maqsadi hamda vazifasi, she'riy intonatsiya, ritm, temp, ritorika. She'riy, nasriy va dramatik janrlarning xususiyatlari. Aruz va barmoq vazni xususiyatlari. Talabalarni ifodali o'qishini baholash.

Ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish bilan bir qatorda talabani nasriy yoki she'riy asarlarning jozibador ohanglaridan zavqlanishga, ezgu va go'zal tuyg'ularning qaror topishiga ham yordam beradi. Zero, ifodali o'qish san'atining mohiyati ham insonda hayotga estetik munosabatda bo'lish hissinı tarbiyalash va o'stirishdan iboratdir.

Mazkur dasturning asosiy mohiyati talabalarga ifodali o'qishning nazariy asoslarini o'rgatish bilan birga, ularda ifodali o'qish malakalarini shakllantirishdan ham iborat.

1.2.Ifodali o'qish fani bo'yicha talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar:

Mumtoz she'riyatimizga xos yuksak g'oyaviylik va etuk badiiyatdan atroficha bahramand bo'lmoq, she'riyatga xos nafis ohanglarni to'la his qilmoq uchun esa adabiyot nazariyasi fanini chuqur o'rganish zarur. O'zbek adabiy tili va uning grammatik xususiyatlarini to'liq o'zlashtirmog'i lozim.

- yuksak tarzda ifodali o'qishni;
- o'zbek klassik adabiyoti va ularning namoyandalari asarlari tahlili;
- o'zbek badiiy adabiyotini g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilish;
- XX asr adabiyoti, uning tematik va janrlar yo'nalishi, ularning namoyandalari asarlarining tahlili.

Amaliy mashg'ulotlar ma'lum mavzu bo'yicha nazariy bilim berilgandan keyin o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar nazariy bilimni mustahkamlash bilan birga o'zaro bir-birini to'ldirib takomillashtirib boradi.

1.3.Ifodali o'qish fanining boshqa fanlar bilan aloqsi.

Ifodali o'qish fanini o'rgatish unga yaqin bo'lgan boshqa bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq ravishda olib boriladi. SHu nuqtai nazardan ifodali o'qish san'atini puxta egallash maqsadida quyida nomlari ko'rsatilgan fanlarni ham o'rganish talab qilinadi:

- 1.Adabiyot tarixi
- 2.Hozirgi zamon adabiyoti
- 3.Adabiyot nazariyasi
- 4.O'zbek tilining tarixiy grammatikasi
- 5.O'zbek tili grammatikasi
- 6.Hozirgi zamon adabiy tili
- 7.Etika
- 8.Estetika

1.4.Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar.

Fanni o'qitishda ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarning aqliy hujum, interaktiv, bumerang kabi usullaridan foydalangan holda tushuncha beriladi.

1. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarining mazmuni

№	Boblar bo'yicha ma'ruzalar nomi va mazmuni	Jami aud soat	Ma'ruzalar Soati	Amaliy mashg'ulot soati	Mustaqil ta'lim soati
	1	2	3	4	5
1	Ifodali o'qish tarixi haqida umumiy ma'lumot		2		4
2	YUnonistonda notiqlik san'atining paydo bo'lishi		2		4
3	O'zbek notiqlik san'ati tarixidan		2		4
4	Ifodali o'qish vositalari		4	2	4
5	Barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish			2	4
6	E.Vohidovning «O'zbekim» she'ri ustida ishlash			2	
7	A.Oripovning «Alisherning onasi», «O'zbekiston madhiyasi» she'rlaridagi intonatsiya, urg'u, pauzalar ustida ishlash			2	
8	U.Nosirning «Monolog» she'ri ustida ishlash va Muhammad YUsuf she'r-larini ifodali o'qish va yod olish			2	
9	Ariz vaznidagi she'rlarni ifodali va to'g'ri o'qishni o'rganish. Ariz vazni haqida ma'lumot. Hijo va ruknlar.			2	2
10	E.Vohidov «Tun bilan yig'labdi bulbul» g'azali ustida mashq			2	
11	Alisher Navoiyning «Kecha kelgumdur debon» g'azali ustida ishlash			2	
12	Bobur, Mashrablarning g'azali va ruboiylarini ifodali o'qish yuzasidan mashqlar			2	2
13	Muqimiy, Furqatlarning g'azali va ruboiylarini ifodali o'qish yuzasidan mashqlar			2	2
14	Nasriy asarlarni ifodali o'qish. Hikoyalarni ifodali o'qish. G'.G'ulom, A.Qahhor, O'.Hoshimov, Said Ahmad, SH.Xolmirzayev hikoyalaridan namunalar, ifodali o'qish.			2	
15	Nasriy asarlarni ifodali o'qish, qissalarni o'qish. O.YOqubov, O'.Hoshimov, T.Malik qissalaridan parcha ifodali o'qish.			2	
16	Nasriy asarlarni ifodali o'qish, romanlarni ifodali o'qish.			2	
17.	Dramatik asarlarni ifodali o'qish. M.SHayxzoda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini ifodali o'qish.			2	
18.	SH.Boshbekovning "Temir xotin" tragik komediyasini ifodali o'qish.			2	
	Jami:		10	30	26

2. Lektsiya mashg'ulotlarining mazmuni (10 soat)

1-mavzu: Ifodali o'qish tarixi haqida umumiy ma'lumot – 2 soat.

Badiiy adabiyot – so'z san'ati ekanligi. «Avesto» va koshinlar ijodi. Roviylilik san'ati haqida tushuncha. Notiqlik san'ati haqida Beruniy va Kaykovusning falsafiy qarashlari. Ifodali o'qish san'atining ahamiyati.

Adabiyotlar – 1,2,13,16,17.

2-mavzu: YUnonistonda notiqlik san'atining paydo bo'lishi – 2 soat.

YUnonistonda notiqlik san'ati taraqqiyoti va uning sabablari. Aristotel - notiqlik san'ati nazariyotchisi. Demofen va Tsitseronning so'z san'ati taraqqiyoti haqidagi faoliyati.

Adabiyotlar – 1,2,14,15,17.

3-mavzu: O'zbek notiqlik san'ati tarixidan – 2 soat

Ulug' so'z san'atkorlarining ifodali nutq va notiqlik haqidagi fikrlari. Husayn Voiz Koshifiy – iste'dodli suxandon, notiq va axloq targ'ibotchisi ekanligi. «Majolisun-nafois»dagi Xoja Muayyad Mehnagiy va Mavlono Riyoziy haqidagi ma'lumotlar.

Adabiyotlar – 1,2,13,16,17.

4-mavzu: Ifodali o'qish vositalari – 4 soat

Urg'u va uning ifodali o'qishdagi ahamiyati. Pauza. Pauza turlari. Intonatsiya haqida ma'lumot. Temp va ritm.

Adabiyotlar – 1,4,15,16,17.

3. Amaliy mashg'ulotlarining mazmuni (30 soat)

1-mavzu: Ifodali o'qish vositalari – 2 soat

Unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish qoidalari.

Adabiyotlar – 1,4,15,16,17.

2-mavzu: Barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish – 2 soat

«O'rik gullaganda», «Sen etim emassan» she'rlari ustida mashqlar.

Adabiyotlar – 1,11,12,17.

3-mavzu: E.Vohidovning «O'zbekim» she'ri ustida ishlash – 2 soat.

Adabiyotlar – 1,2,17.

4-mavzu: A.Oripovning «Alisherning onasi», «O'zbekiston madhiyasi» she'rlaridagi intonatsiya, urg'u, pauzalar ustida ishlash – 2 soat.

Adabiyotlar – 1,2,17.

5-mavzu: U.Nosirning «Monolog» she'ri ustida ishlash va Muhammad YUsuf she'rlarini ifodali o'qish va yod olish – 2 soat.

Adabiyotlar – 1,2,11,17.

6-mavzu: Aruz vaznidagi she'rlarni ifodali va to'g'ri o'qishni o'rganish. Aruz vazni haqida ma'lumot.

Hijo va ruknlar – 2 soat.

Adabiyotlar – 1,2,3,5,6,7,17.

**7-mavzu: E.Vohidov «Tun bilan yig'labdi bulbul»
g'azali ustida mashq - 2 soat.**

Adabiyotlar – 1,2,17.

**8-mavzu: Alisher Navoiyning «Kecha kelgumdur debon»
g'azali ustida ishlash – 2 soat.**

Adabiyotlar – 1,2,3,5,6,8,17.

**9-mavzu: Bobur, Mashrablarning g'azali va ruboiylarini ifodali o'qish yuzasidan
mashqlar – 2 soat.**

Adabiyotlar – 1,2,6,7,8,9,17.

**10-mavzu: Muqimiy, Furqatlarning g'azali va ruboiylarini ifodali o'qish yuzasidan
mashqlar – 2 soat.**

Adabiyotlar – 1,2,6,7,8,9,17.

**11-mavzu: Nasriy asarlarni ifodali o'qish. Hikoyalarni ifodali o'qish. G'.G'ulom,
A.Qahhor, O'.Hoshimov, Said Ahmad, SH.Xolmirzayev hikoyalaridan namunalar, ifodali
o'qish – 4 soat.**

Adabiyotlar – 1,2,17.

**12-mavzu: Nasriy asarlarni ifodali o'qish, qissalarni o'qish. O.YOqubov, O'.Hoshimov,
T.Malik qissalaridan parcha ifodali o'qish. – 2 soat**

Adabiyotlar – 1,2,17.

13-mavzu: Nasriy asarlarni ifodali o'qish, romanlarni ifodali o'qish. – 2 soat

Adabiyotlar – 1,2,17.

**14-mavzu: Dramatik asarlarni ifodali o'qish.
M.SHayxzoda «Mirzo Ulug'bek dramasi» – 2 soat.**

Adabiyotlar – 1,2,17.

**15-mavzu: Dramatik asarlarni ifodali o'qish. SH.Boshbekovning “Temir xotin” tragik
komediyasini ifodali o'qish. – 2 soat**

Adabiyotlar – 1,2,17.

4. Mustaqil ishlar mavzusi

(26 soat)

1. Ifodali o'qish tarixi haqida umumiy ma'lumot – 4 soat.
2. YUnonistonda notqlik san'atining paydo bo'lishi – 4 soat.
3. O'zbek notqlik san'ati tarixidan – 4 soat.
4. Ifodali o'qish vositalari – 4 soat.
5. Barmoq vaznidagi she'rlarni ifodali o'qish – 4 soat.
6. Aruz vaznidagi she'rlarni ifodali va to'g'ri o'qishni o'rganish. Aruz vazni haqida ma'lumot. Hijo va ruknlar – 2 soat
7. Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Furqatlarning g'azali va ruboiylarini ifodali o'qish yuzasidan mashqlar – 2 soat.
8. Nasriy asarlarni ifoda-li o'qish. A.Qahhorning «O'g'ri», «Bemor», «Anor», «Adabiyot muallimi» hikoyalaridan parchalar o'qish – 2 soat.

5. YAkuniy nazorat savollari

1. Aristotelning notqlik san'ati nazariyotchisi sifatida faoliyatini tushuntiring.
2. Ifodali o'qishda urg'uning qanday ahamiyati bor?
3. Badihago'ylik va baznago'ylik haqida ma'lumot bering.
4. Demosfenning notqlik faoliyati haqida ma'lumot bering.
5. Temp va ritmning ifodali o'qishda qanday ahamiyati bor.
6. Aruz vaznidagi she'r bilan barmoq vaznidagi she'rlarning o'qilishida qanday tafovutlar mavjud?
7. TSitseronning notqlik faoliyati haqida ma'lumot bering.
8. Ifodali o'qish vositalarini tushuntiring.
9. Kohinlar faoliyati haqida tushuntiring.
10. Notqlik nutqiga qo'yadigan talablar nimalardan iborat?
11. «Majolis un-nafois»da ma'lumot berilgan notqlar faoliyati haqida tushuntiring.
12. Halil ibni Ahmad kim?
13. Kaykovus suxandonlik va suhbat odobi haqida qanday fikrlar bildirgan.
14. Aristotelning notqlik faoliyati haqida ma'lumot bering.
15. Hijo va bo'g'in haqida tushuncha bering.
16. Husayn Voiz Koshifiy haqida ma'lumot bering.
17. Mantiqiy (logik) urg'u nima?
18. Logograflar haqida ma'lumot bering.
19. Hoja Muayyad Mehnagiy haqida ma'lumot bering.
20. Notiq oldiga qanday talablar qo'yilgan?
21. Imlo hodisasi nima?
22. Husayn Voiz Koshifiy suhbat odobi haqida qanday fikrlar bildirgan?
23. «Ritorika» asarining notqlik san'atidagi ahamiyati.
24. She'riy hilo haqida ma'lumot bering.
25. Mavlono Riyoziy haqida ma'lumot bering.
26. «Ritorika» asarining notqlik san'atidagi ahamiyati.
27. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
28. «Ritorika» asari haqida ma'lumot bering.
29. Pauza nima?
30. XV asrda yashab ijod etgan so'z san'atkorlari, notqlar haqida qisqacha ma'lumot bering.
31. Badihago'ylik san'atini tushuntiring.
32. Rukn haqida ma'lumot bering.
33. Husayn Voiz Koshifiy qanday asarlar yaratgan?
34. Ifodali o'qish san'ati qachon paydo bo'lgan?
35. «Ilmi balog'a» qanday san'at.
36. YUnonistonda notqlik san'atining rivojlanib ketishiga nima sabab bo'ldi?

37. Alisher Navoiy soʻz sanʼati haqida qanday fikrlar bildirgan?
38. Turoq nima? Misollar bilan tushuntiring.
39. Roviylilik sanʼati haqida maʼlumot bering.
40. Notiqlik sanʼati haqida YUsuf Xos Hojibning qarashlari.
41. «Brut» va «Notiqlar» haqida maʼlumot bering.
42. YUsuf Xos Hojib nutq odobi haqida qanday fikrlar bildirgan?
43. «Ilmi balogʻa» haqida maʼlumot bering.
44. Husayn Voiz Koshifiy notiq oldiga qanday talablar qoʻyadi?
45. Intonatsiya haqida maʼlumot bering.
46. Turoq va ruknning farqi nimada?
47. Notiqlik sanʼatining taraqqiyotida «Ritorika» asarining tutgan oʻrni.
48. Pauza haqida maʼlumot bering.
49. Hijo, bayt, band haqida maʼlumot bering.
50. SHeʼriy rukn nima?
51. Soʻz sanʼati haqida Beruniyning falsafiy qarashlari.
52. Intonatsiya nima?
53. Aritotelʼs notiqlik sanʼatini egallashni qanday tarkibiy qismlarga ajratgan?
54. Temp va ritm haqida maʼlumot bering?
55. Qissaxonlar haqida maʼlumot bering.
56. Ahmad YUgnakiyning nutq odobi haqida aytgan fikrlaridan namunalar keltiring.
57. Psixologik pauza nima?
58. Aruz va barmoq vaznidagi sheʼrlarni oʻqishda qanday farqlar mavjud?
59. Hijo va rukn haqida maʼlumot bering.

6. Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: «Oʻzbekiston», 1994.
2. Q.Oripov, M.Obidova. Ifodali oʻqish. T.: «Oʻqituvchi», 1994.
3. A.Xojiahmedov. Maktabda aruz vaznini oʻrganish. T.: «Oʻqituvchi», 1995.
4. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. T.: «Oʻqituvchi», 1993.
5. A.Xojiahmedov. Oʻzbek aruz lugʻati. T.: SHarq matbaa nashriyot aksiyadorlik jamiyati, 1998.
6. A.Xojiahmedov. Aruz vaznidagi asarlarni ifodali oʻqish. T.: «Oʻqituvchi», 1999.
7. A.Fitrat. Aruz haqida. T.: «Oʻqituvchi», 1997.
8. Alisher Navoiy «Topmadim» gʻazallar. T.: «Ulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1994.
9. Lutfiy «Sensan sevarim...». T.: «Ulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1993.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlar. T.: OʻzFA nashriyoti. 1991.
11. U.Nosir. «Unutmas meni bogʻim». «Ulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1991.
12. Mahtumquli. Saylanma sheʼrlar. T.: «YOzuvchi», 1995.
13. Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati». T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
14. Umarov E.I. Estetika. T.: «Oʻqituvchi», 1991.
15. Sarimsoqov B. Badiiylilik asoslari va mezonlari. T.: «Fan», 2004.
16. Qoʻngʻurov R. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. T.: «Oʻqituvchi», 1992.
www.oʻzbek.adabiyoti.com

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
 "Ifodali o'qish" fanidan reyting ishlarnasi 2010-2011 o'quv yili uchun

№.	Nazorat turlari	1-joriy nazorat (JB)	2-joriy nazorat (JB)	Oraliq nazorat (JB)	YAB	Jami ball
		" " 2010	" " 2011	" " 2011		
I.	Joriy nazorat					
1.	Amaliy mashg'ulotlardagi faoliyati	4x2	4x2			16
2.	Kollokvium			18		18
3.	Badiiy asar tahlili	4	4			8
4.	Mustaqil ta'lim	2x4	2x4	12		28
III.	YAkuniy nazorat (yozma ish)				30 (18+12)	30 (18+12 must. ta'l.)
	Jami:	20	20	30	30	100

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
 "Ifodali o'qish" fanidan reyting ishlarnasi va baholash mezonlari 2010-2011 o'quv yili uchun.

Ball	Baho	OT DTS talablarini bilish darajasi
86-100 %	"A'lo"	xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.
71-85 %	"yaxshi"	mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.
55-70 %	"qoniqarli"	mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.
0-54 %	"qoniqarsiz"	aniq tasavvurga ega bo'lmaslik; bilmaslik.

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Ifodali o'qish" fanidan reyting ishlarni va baholash mezonlari 2010-2011 o'quv yili uchun).

№.	Ish turlari	Soni	Ajratilgan ball	Jami	Reyting ballari mezonlari
I.	Joriy baholash	-	-	40	
1.	Amaliy mashg'ulotdagi faoliyati	8	2	16	1. Uyga berilgan vazifani bajargani uchun -- 1 ballgacha, 2. Amaliy mashg'ulotdagi faolligi uchun -- 1 ballgacha.
2.	Mustaqil ish	8	2	16	1. Berilgan topshiriqni to'la bajargani uchun -- 1 ball 2. Berilgan topshiriqni izohlab, tushuntirib bera olgani uchun -- 1 ballgacha
3.	Badiiy asar tahlili	2	4	8	Ijodiy fikrlay olgani uchun -- 4 ballgacha
II.	Oraliq nazorat			30	
1.	Mustaqil ish (ijodiy yozma ish)	1	12	12	Mavzuni atroflicha yoritishi, tuzilgan rejaning mantiqiyligi uchun -- 12 ballgacha
	Kollokvium	1	18	18	Topshirilgan bo'limni to'g'ri va to'liq o'zlashtirishi, nazariy puxta javobi uchun -- 18 ballgacha
III	YAKuniy nazorat (5 ball mustaqil ish -- 3 savol ijodiy)	1	30	30	YAN og'zaki usulda o'tkaziladi. Berilgan savolga mazmunli, nazariy jihatdan mukammal javobi uchun -- 18 ballgacha; 3 savolga to'liq javob bergani uchun -- 12 ballgacha.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

IFODALI O'QISH

f a n i d a n

O'QUV - USLUBIY MAJMUUA

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASIDA TAYYORLANDI

QO'QON -2010

1 - mavzu	KIRISH. Ifodali o'qish tarixi haqida umumiy ma'lumot.
------------------	--

1.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. Badiiy adabiyot – so'z san'ati. 2. “Avesto” va koshinlar ijodi. 3 Roviylilik san'ati haqida tushuncha. 4. Notiqlik san'ati haqida Beruniy va Kaykovusning falsafiy qarashlari. 5. Ifodali o'qish san'atining ahamiyati.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushuntirishga o'rgatadi..	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- “Ifodali o'qish” fanining asosiy xususiyatlarini aniqlash; - Ifodali o'qishning tarixiy ildizlarini o'rganish; - “Ifodali o'qish” fanining maqsad va vazifalarini tushuntirish.	“Ifodali o'qish” fanining asosiy xususiyatlarini tushunib yetadilar; - Ifodali o'qishning tarixiy ildizlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar; - “Ifodali o'qish” fanining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini bilib oladilar. So'z san'atining betakror nazokatini his qiladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Guruhlar bilan ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.


Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Ifodali o'qishda urg'uning qanday ahamiyati bor? 3.2. Temp va ritmning ifodali o'qishda qanday ahamiyati bor? 3.3. Badiiy o'qish tarixining juda qadim zamonlarga borib taqalishini tushuntiradi. . 3.4. So'z san'atining dastlabki yirik namunasi "Avesto" haqida ma'lumot berish. 3.5. Notqlik san'atining kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot berish. Kaykovusning "Qobusnoma"sida keltirilgan so'zlash odobi va madaniyati haqidagi fikrlari bilan tanishtirish. 3.6. Ifodali o'qish san'atining ahamiyatini misollar yordamida tushuntirib beradi.	3.1. Ifodali o'qishda urg'uning qanday ahamiyatga ega ekanligini bilib oladilar. 3.2. Temp va ritmning ahamiyatini bilib oladilar. 3.3. Yozib oladilar. 3.4. "Avesto" haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. 3.5. Notqlik san'atining kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, yozib oladilar. 3.6. Yoddan she'r o'qib beradilar. Tahlil qiladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga hulosasi yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalar reyting tizimida baholanadi. 4.2. Mustaqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. YOzib oladilar. 4.2. YOzib oladilar. Mavzuga oid savollar bilan murojaat qiladilar.

REJA:

1. Badiiy adabiyot – soʻz sanʼati.
2. “Avesto” va kohinlar ijodi.
3. Roviylilik sanʼati haqida tushuncha.
4. Notiqlik sanʼati haqida Beruniy va Kaykovusning falsafiy qarashlari.
5. Ifodali oʻqish sanʼatining ahamiyati.

Tayanch tushunchalar:

She'riy intonatsiya, ritm,
temp, ritorika.



Ifodali o'qish mashg'ulotlari badiiy asarni tahlil qilishga, yozuvchi yoki shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini to'g'ri tushunishga o'rgatish bilan bir qatorda talabani yasriy yoki she'riy asarlarning jozibador ohanglaridan zavqlanishga, ezgu va go'zal tuyg'ularning qaror topishiga ham yordam beradi.

1. Notiqlik mahorati fani-og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirchan etkazish malakasini egallash haqida tushuncha beradi.

Ifodali o'qish murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi. Hozirgi sharoitda propagandaning ta'sir kuchini har tomonlama oshira borishni asosiy vazifalardan biri qilib qo'yar ekan, buni amalga oshirish yo'llaridan biri - Ifodali o'qishni egallashga e'tiborni kuchaytirishni ta'kidlaydi. Lektor, dokladchi va propagandiat (tashviqotchi)lar Ifodali o'qishni qanchalik qunt bilan egallasalar, tinglovchilar diqqatini shunchalik ko'p jalb etadilar, shuningdek, ular nutqining ta'sir kuchi oshadi. Ideologik ishda, tashviqotchi va propagandada faqatgina mazmun asosiy ahamiyatga ega bo'lib qolmay, balki uni ommaga etkazish shakli ham katta rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, notiqning har qanday sharoitda o'zini erkin va mas'uliyat bilan tuta bilishi nutqning ta'sir kuchini oshiradi. "Agar kishi (bu erda, albatta, notiq nazarda tutilayapti - B.O'.) mening qarshimdagi tinlovchilar ongsiz-ku, deb o'ylab, o'z nutqini ataylab oddiylashtirib yuborsa u o'zini yarim halok etadi. Aksincha, agar tinglovchilar sendan ahmoqroq emasligini bilib turib gapirsang, unda bayon etgan narsangning hammasi barchaga tushunarli bo'ladi.

Ifodali o'qishning ogitatsiya va propagandaning ta'sirchanligi va yuksak g'oyaviyligini taxmin etishdagi muhim roli hamma vaqt qadrlangan.

Chinakam nutq katta mahorat va puxta tayyorgarlikning mahsulidir. Puxta va ta'sirchan nutq hammavaqt ham ommaning ilg'or qismi tomonidan

mamnuniyat bilan kutib olingan va qadrlangan. Omma hamma joyda o'z dilidagini topib gapiruvchi ajoyib, yorqin nutqli kishilarni yoqtirgan va hurmat qilgan. Bunday kishilar o'z nutqlarining ishontirish quvvati: hayotiyligi, xalqqa tushunariligi bilan e'tibor qozonganlar. Xalq quruq, dabdabali, tinglovchining vaqtini oluvchi, to'g'ri yo'ldan chalg'ituvchi mahmadonalarni yoqtirmagan va ulardan yuz o'g'irgan.

Hozirgi kunda "Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ish siyqasi chiqib qolgan gaplarni ishlatmay, tayyor iboralarni ketma-ket keltiravermay, jonli va qiziqarli qilib olib borishi kerak. Bugungi kunning kishisi-bilimdon, madaniy kishidir. Bunday kishi bilan yaxshi uxlamay, quruq rasmiy til bilan gaplasha boshlasalar, hayot bilan, real faktorlar bilan aniq aloqa bog'lash o'rniga umumiy gaplar bilan cheklanib qoladigan bo'lsalar, u televizor yoki radioni o'chirib qo'yadi, gazetani ham bir chekkaga yig'ishtirib qo'yadi.

2. Oddiy, madaniy va savodli gapirishni o'rgangan tashviqotchi Ifodali o`qishni egallashga birinchi qadam qo'ygan hisoblanadi. Yana ham olg'a ketish uchun esa, yorqin, obrazli, ravon gapirishni o'rgana borish lozim bo'ladi. Buning uchun har bir tashviqotchi tajribali notiq-tashviqotchilarning faoliyatini, nutqiy uslubini tinmay o'rgana borishi va ularni o'z faoliyatida ijodiy qo'llay bilishi, hayotga tatbiq eta olishi kerak.

Ifodali o`qish o'zining ulkan tarixiga ega.

Ifodali o`qish tarixi bilan tanishish va o'rganish lektorga, tashviqotchilarga o'tmishdagi eng yaxshi notiq-larning ish tajribasidan tanqidiy foydalanishga yo'l ochish bilan birga, o'zining lektorlik, tashviqotchilik mahoratini takomillashtira borishiga ham yordam beradi.

O'tmishdagi
mashhur notiqning
tajribasini
o'rganayotganda
quydagilarga e'tibor
berish lozim:

1. Ifodali o'qish
ijtimoiy hayotning turli
sohalarida namoyon
bo'ladi. Notqlikning
ijtimoiy-siyosiy
notqlik, sud notqligi,
akademik yoki ilmiy
notqlik, diplomat
notqligi, harbiy
notqlik, marosim, urf-
odat notqligi kabi
turlari bor.

2. Notqlik
tarixiy voqeadir. Har
bir davr minbarga o'z
notig'ini chiqaradi, har
bir sinf o'z notig'ini
etishtiradi.

3. Notiq auditoriya
bilan mustahkam
aloqada bo'lganida,
uning nutqi xalqning
o'ylari va ishlarini ifoda
etgandagina
muvaffaqiyatga erisha
oladi. Notiqning nutqi
sub'ektiv fazilatlari
bilangina emas, balki
nutq so'zlanayotgan
ob'ektiv shart sharoitlari
bilan ham belgilanadi.
Madaniy saviya,
masalan chuqur bilish
va nutq so'zlash
malakalari notiqning
muvaffaqiyatlarini
belgilaydi.

Demokratiya, so'z erkinligi bo'lgan joyda, notiqning fikr va hissiyotlari ilg'or sinflarning manfaatlari bilan mos kelgan joydagina Ifodali o`qish yuksak darajaga ko'tarila oladi. Demokratiya Ifodali o`qishning onasidir.

Umuman, Ifodali o`qish tarixini, yirik notiqning ish uslubini, tajribasini o'rganish notiqning taqlid qilish emas, balki har bir o'rganuvchi, boshlovchi notiq uchun o'z nutqiy uslubiga, o'z Ifodali o`qishga ega bo'lishiga yo'l ochadi. O'tmish notiqning tajribasini, ularning taraqqiyotini o'rganib bilib olmasdan Ifodali o`qishni mukammal egallash, etuk notiq darajasiga ko'tarilishi qiyin.

"Yozishni boshlaganingizda, siz balki avvallari klassiklarga taqlid qilarsiz, bundan qo'rqqmang, dastlabki paytlarda buning unga zarari yo'q. Yozuvchining o'z stilini turmush yaratadi. Klassiklar siz uchun birinchi bosqich va boshqacha qilib aytganda, adabiyotga kirish yo'lidir" Bu fikrni bevosita faoliyat boshlagan yosh notiq va agitatorlarga ham tadbiiq etish mumkin. Chunki bular ham boy tajribaga ega bo'lgan klassik Ifodali o`qish vakillarining faoliyatini o'rganmasdan muvaffaqiyatga erisha olmaydi yoki bu san'atni egallashga musharraf bo'lmaydi.

3. Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi O'zbekiston xududida, nutq madaniyati va Ifodali o`qish o'z-o'zidan birdaniga vujudga kelgan emas. Uning chuqur tarixiy ildizlari va g'oyaviy manbalari mavjud bo'lib, qadimda voizlik san'atiga katta e'tibor berilgan, uning ko'plab iste'dodli nomayondolari ibrat ko'rsatib, boy meros qoldirib ketganlar.

5-ilova

"Va'z" so'zi arabcha targ'ib qilish, pand-nasihat degan ma'nolarni anglatadi; "voiz" so'zi esa va'z aytuvchi, nutq so'zlovchi shaxs ma'nosini bildiradi. Voizlik san'ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his-tuyg'usiga ta'sir etish mahorati bo'lib, hozirgi vaqtda u Ifodali o`qish deb yuritilmoqda.

Qadimgi Sharqda (IX asrgacha) voizlik vazifasini shohlar, halifalar bajarganlar. Ular juma kunlari, hayit va boshqa bayramlarda jamoani yig'ib, davlat siyosati, fuqarolarning majburiyati va burchlari (jumladan, itoatkorlik, qonunlarga rioya qilish), boshqa mamalakatlardagi vaziyat, dushmanlarning kirdikorlari, mudofaa masalalari haqida va boshqa mavzularda va'z aytganlar.

IX asrdan boshlab davlat hukmdorlari bu tadbirni o'z ixtiyorlaridagi maxsus so'z ustalariga yuklab, voizlar deb atay boshlaganlar. "Voiz" so'zi xatto ularning ismi-shariflariga qo'shib aytilgan va yozilgan.

Markaziy Osiyo voizlik san'ati xazinasiga dastavval Bahovuddin Valad (XII asr), Jaloliddin Rumi (XIII asr), Husayn Koshifiy, Muin voiz (XV asr) kabi so'z ustalari g'oyat boy hissa qo'shganlar.


6-ilova



Shuningdek, tarixchi, shoir muhaddislarning asarlarida ham voizlik san'atiga aloqador ba'zi fikrlar bayon etilgan. Chunonchi, tarixnavis Ali Yazdiyning "Zafarnomasi"da, Navoiyning "Majolis un-nafois", "Mantiq ut-tayr", Mahbub ul-qulub", "Xamsa", "Chor devon" asarlarida; Zayniddin Vosifiyning (XV asr) "Badoe ul-voqoe"; Xondamirning "Makorim ul-ahloq" risolasida atoqli voizlarning mahorati, iste'dodi, va'zxonlik uslublari haqida mulohazalar yuritilgan. Mavlono Navoiy voizlar "minbar ustida devonavor" qiyofada hamda otashnafas harorat va his-tuyg'u shijoati bilan nutqlarini me'yoriga etkazganliklarini qayd etgan.

Tarixchilarning shohidlik berishlaricha, sohibqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur, Mirzo Ulug'bek kabi davlat arboblari voizlik san'atini puxta egallaganlar va faoliyatlarida undan mohirona foydalanganlar. Voizlik san'ati, asosan, uch shaklda bo'lgan.

7-ilova



Bulardan birinchisi-davlat maqomidagi yozishmalarni yozma bayon etish va qiroat bilan o'qib berish, ikkinchisi-juma kunlari peshin nomozi oldidan xutba o'qish, uchinchisi-juma kunlaridagi, hayit va boshqa tantanali kunlardagi

anjumanlarda xatibdan keyin diniy, axloqiy, huquqiy masalalarni sharhlab berishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik, bularga respublikamizda keng tarqalgan amri ma'ruflar ham qo'shilgan.

Endilikda ularni asosan imom-xatib, imom-noiblar, goho mudarrislar o'tkazayotirlar. Umuman, voizlik san'atiga diniy ta'limot sohiblari hamisha katta e'tibor bilan qaraganlar va bu an'ana hozir ham davom etmoqda.

O'rta asr voizlik san'atida har bir so'z , tushuncha, ohangning tasirchanligiga erishish, muayyan bir fikr, mulohaza, hukm, g'oya, mafkura va xulosani o'z tinglovchilariga etkazish maqsadida suxandonlik (ritorika) Fani o'qitilgan. Hozir ham madrasalarda bu fan o'qitilmoqda. Bu davr voizlik san'atida jarangdorlik, farmonbardorlik ohangi etakchi bo'lgan. Shu tufayli ular ijtimoiy salmoq, siyosiy qudrat kasb etgan, badiiy sayqal topgan.

Xulosa shuki, o'zbek xalqi o'tmishidagi voizlarning aksariyati o'zlariga nisbatan g'oyat talabchan bo'lib, tinglovchilar huzurida oz bo'lsa-da, soz chiqqanlar. Ular o'z shinavandalari oldida katta mas'uliyat his etganlar; keng va chuqur bilim, ibratomuz mahoratni obdon egallamasdan el huzuriga chiqmaganlar. Bu fazilat hozirgi davr o'zbek notiqlari uchun bebaho meros bo'lib, uning vorislari o'z salafalaridan ibrat olsalar, aslo adashmaydilar. Zero, o'tmish Sharq voizlik san'ati bilan hozirgi davr nutq madaniyati orasida uzviy birlik, vorislik bor. Hozirgi davrdagi pedagoglar, professor-o'qituvchilar, shoiru yozuvchilar voiz ajdodlarimiz bizga armug'on etib qoldirib ketgan ma'naviy merosning munosib vorislari bo'lmoqlari lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.O'rinboyev, A.Soliyev "Notiqlik mahorati" Toshkent "O'qituvchi" 1984 yil.
2. A.Ahmedov "Ifodali o`qish" Toshkent-1987 yil
3. E.Begmatov "Notiqlik nodir san'at" Toshkent-1980 yil
4. S.Imomxo'jayev "Ifodali o`qish asoslari" Toshkent-1982 yil
5. Umirqulov B. "Lektor nutqi va badiiy til" Toshkent-1981 yil
6. A.Ortiqov "Ifodali o`qish va nutq madaniyati" Toshkent-2002 yil

2 - mavzu	YUnonistonda notiqlik san'atining paydo bo'lishi.
------------------	--

2.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. YUnonistonda notiqlik san'ati taraqqiyoti va uning sabablari. 2. Aristotel – notiqlik san'ati nazariyotchisi. 3 Demosfen va Siseronning so'z san'ati taraqqiyoti haqidagi faoliyati.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: notiqlik san'atining tarixi juda uzoq bo'lib, u eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshladi. Notiqlik san'atining yirik namoyondalari Aristotel, Demosfen, Siseronlarning notiqlik san'ati haqidagi fikrlari bilan tanishtirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- Notiqlik san'atining kelib chiqish tarixini o'rgatish; - Logografiyaning notiqlik san'ati rivoj topishidagi rolini ochib berish; - Sud notiqligi, harbiy notiqlik, siyosiy notiqlik haqidagi tushunchalarni izohlab berish. - Notiqlik san'ati namoyondalarining fikr-mulohazalari bilan tanishtirish.	- notiqlik san'ati eramizdan avvalgi V asr boshlarida YUnonistonda shakllana boshlagani; - notiqlikning nihoyat og'ir va sermashaqqatligini; - Aristotelning "Ritorika" asari mazmunini; - Siseronning "Brut", "Notiq" nomli Rim notiqlik san'ati tarixiga bag'ishlangan asarlarini; - XI-XII asrlarda paydo bo'lgan "universitet notiqligi" haqida bilib oladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Guruhlar bilan ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

2.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar. 2.2. savollar beradilar.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasi? 3.2. "Ritorika" asarining muallifi kim? 3.3. Notqlik san'atining kelib chiqish tarixi bilan tanishtirish. 3.4. Aristotel – notqlik san'ati nazariyotchisi ekanligini "Ritorika", "Poetika" asarlari misolida tushuntirish. 3.5. Demosfen va Siseronning so'z san'ati taraqqiyoti haqidagi faoliyati bilan tanishtirish.	3.1. Nutq madaniyati haqida o'z bilganlarini gapirib beradilar. 3.2. Aristotel haqida "Ritorika" asari haqida bilib oladilar. 3.3. Notqlik san'atining kelib chiqish tarixi bilan tanishadilar. 3.4. Aristotel – notqlik san'ati nazariyotchisi ekanligini "Ritorika", "Poetika" asarlari misolida bilib oladilar. 3.5. Demosfen va Siseronning so'z san'ati taraqqiyoti haqidagi faoliyati bilan tanishadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga hulosasi yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalar reyting tizimida baholanadi. 4.2. Mustaqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. YOzib oladilar. 4.2. YOzib oladilar. Mavzuga oid savollar bilan murojaat qiladilar.

REJA:

1. YUnonistonda notiqlik san'ati taraqqiyoti va uning sabablari.

2. Aristotel – notiqlik san'ati nazariyotchisi.

3 Demosfen va Siseronning so'z san'ati taraqqiyoti haqidagi faoliyati.

Tayanch tushunchalar:

***Notiqlik san'ati, Aristotel,
“Ritorika”, “Poetika”,
Demosfen, Siseron.***

1. Ifodali o`qish eng qadimgi san'at turlaridan biri. Bu san'at dastlab Misr, Assuriya, Vavilon va boshqa qadimiy davlatlarda paydo bo'lsa-da, asosan Gretsiyada rivojlandi, ravnaq topdi.

Qadimiy Gretsiya Ifodali o`qish haqida birinchi va asosli ma'lumotlar beradi. Bu yerda Ifodali o`qishning o'sishiga sabab bo'lgan asosiy omil Afina va boshqa davlatlarni ham qamrab olgan sinfiy kurashning kuchayishidir. Siyosiy arboblarning o'z sinfiy manfaatlarini boshqa ijtimoiy guruhlar oldida himoya qilishga va ularga ta'sir etishga majbur bo'lganlar.

Afinalik u yoki bu shaxsning siyosiy taqdiri notiqlik mahorati bilan bog'liq bo'lgan. Quldorlik demokratiyasi haqida gapirganda, uning sinfiy xarakterini ham esdan chiqarmaslik lozim. Bu demokratiya faqat quldorlar uchun edi, xolos. Qullar mamalakatning siyosiy hayotidan butunlay chetlatib qo'yilgandi. Shuningdek, quldorlik demokratiyasining cheklanganligi, Afina xotin-qizlarining siyosiy huquqdan foydalana olmasliklarida ko'zga tashlanardi.

Lekin, quldorlik demokratiyasi, garchi cheklangan xarakterda bo'lsa-da, Ifodali o`qishning muhim bir turi-siyosiy notiqlikning ravnaq topishiga, uning Gretsiya va qadimiy Rimda misli ko'rilmagan yuqori cho'qqiga ko'tarilishiga zamin yaratdi. O'sha davrning buyuk notigi Tsitseronning aytishicha, insonni oliy darajaga ko'taruvchi ikki san'at bor: biri yaxshi harbiy sarkarda san'ati, ikkinchisi yaxshi notiq san'ati.

Savdo ham Gretsiyada Ifodali o`qishning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Gretsiya savdo davlati edi. Savdo operatsiyalari, savdo ishlarini muvaffaq qilish va yakunini ko'rib chiqish uchun yuristlarni jalb etish talab etilardi. Shunday qilib, Gretsiyada siyosiy notiqlik bilan bir qatorda maishiy hayotga, ishga oid notiqlik ham o'sa bordi.

Ifodali o`qishning rivojida grek sud rasmiyatchiligining roli ham katta. Eramizgacha 594 yilda Salomon hukumronligi davrida chiqarilgan qonunga ko'ra, afinalik har bir fuqaro sudda o'zini-o'zi himoya qila bilishi kerak edi. Bu hol kishilarni chiroyli va ta'sirchan gapirishini o'rganishga majbur qildi.

Albatta, hamma ham bunga ko'nika olmadi, hamma ham sudda yaxshi so'zlay bilish usulini egallay olmaydi. Natijada Gretsiyada logograflar (nutq tekstini yozuvchilar), mohir notiqlar, yuristlar sud qilinuvchilardan haq olib, nutq tekstini yozib bera boshlaydilar. Sud qilinuvchi, o'z navbatida, uni o'rganib, sudda o'zini himoya qiladi. Umuman gapirishga qobiliyatsiz kishilar esa, sudning ruxsati bilan o'rniga boshqa kishini so'zlash uchun tavsiya qilishi mumkin edi.


Yuqoridagilardan tashqari, qadimgi Gretsiyada maqtov notiqlik ham vujudga keldi. Bunday notiqlik ko'proq tantanali marosimlarda, yubileylarda nutq so'zlardilar.

Umuman Gretsiyada Ifodali o`qish yuqori turar va qadrlanar edi. Greklar faqat chiryli nutqnigina yuqori baholab qolmay, uning mazmundorligiga ham

alohida e'tibor berardi. Shu tufayli, ular kishilarga Ifodali o`qishni o'qitishni, o'rgatishni birdan-bir vazifa deb bilarilar. Gretsiyada maxsus maktablar tashkil etilib ularda tajribali notiqalar yoshlarga nutq so'zlash malakasini egalash bo'yicha dars berardilar. Gretsiyada Ifodali o`qish nazariyasi - ritorika yaratildi va bir qator Taniqli notiqalar paydo bo'ldiki, ularning tajribasi hozirga qadar ham o'rganilib kelinmoqda.

Ifodali o`qish boshda Afinadi rivojlandi. Gretsiyaning boshqa davlatlari, deyarli yirik notiqalarga ega emasdi. Bu Gretsiyaning boshqa davlatlarida siyosiy qurilish fuqarolarning jamiyat hayotiga keng ishtiroki uchun sharoit yaratilmaganligi bilan xarakterlanadi. Ifodali o`qish tarixi guvohlik berishicha, bu san'at mamalakatning siyosiy hayotida barcha fuqarolar faol qatnashuviga shart-sharoit bo'lgan joydagina rivojlanadi.

3-ilova



Gomerning "Iliada" va "Odessiya" asarlari bizga Gretsiyaning birinchi notiqalari haqida ma'lumot beradi. Taniqli Rim notig'i, nazariyachi va pedagog Kvintilian Gomer asarlarida chiroyli gapirish va nutq so'zlashning dastlabki namunalarini ko'rdi.

"Iliada"da turli tipdagi notiqalar haqida ma'lumot beriladi. Undagi chol Nestor nutqiga ko'tarinkilik xos bo'lsa, asardagi ikki buyuk qahramon -Odessy va Meneley nutqi boshqacha namoyon bo'ladi. Ya'ni Meneley qisqa va aniq so'zlashni yoqtiradi, ko'p so'zlilikni, asosiy temadan tashqari chiqishni yoqtirmaydi. Odesseyda esa jo'shqinlik kuchi: "nutqlari qor quyundek og'zidan otilib chiqardi".

Ayrim tadqiqotchilarning ko'rsatishicha Gomer poemalarida Ifodali o`qishning asosiy tiplari o'z ifodasini topgan. Gretsiyaning qadimgi Gomer davri notiqalari haqidagi ma'lumotlar, shu kunar uchun ham muhim bo'lgan ayrim xulosalar chiqarishga asos beradi:

Birinchiidan og'zaki nutq san'ati o'z-o'zini to'g'ri chegaralay bilish san'atidir: aniqlik va qisqalik-og'zaki nutqning fazilatidir.

Ikkinchiidan, turli temperamentli notiqalar bo'ladi. Birovlarda vazminlik va xotirjamlik ustun tursa, boshqalar haroratli va jo'shqin bo'ladi. Shuning uchun ham nutq so'zlaganda yoki lektsiya qilganda notiq temperamenti xususiyatini hisobga olish lozim; chunki, bir notiqqa ma'qul bo'lgan usul boshqasiga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Gretsiya-lo'nda, jozibador nutqning vatani. Greklar Meneley nutqi kabi qisqa-lakonizm (fikrni qisqacha, lo'nda qilib ifodalash) usulidagi nutqni juda yaxshi tinglar va yoqtirardilar.

Lakonizm - "lokoniya" so'zidan kelib chiqqan bo'lib asli bu so'z qadimgi grek davlatlaridan Spartadagi bir rayonning nomi bo'lgan. Bu erning aholisi o'z fikrlarini ravshan va qisqa shaklda aytishga layoqatli bo'lganlar. Shundan "lakonchasiga so'zlash usuli"-lakonizm kelib chiqqan. Afsonalarda aytilishicha, Samosa orolidan Lakon rayoniga notiqlar kelib, uzoq nutq so'zlashadi. Lakonliklar cho'ziq nutqqa o'rganmaganliklaridan charchab qoladilar. Shunda mahalliy kishilardan biri chiqib, shunday javob "nutq"i so'zlaydi: "Siz avval boshda nima dedingiz, uni biz unutdik, chunki bu ancha ilgari bo'lgandi, nutqingizning oxirini tushunmadik, chunki boshlanishi unutilgan".


Fikrni qisqacha, lo'nda qilib ifodalash hozirgi vaqtda ham og'zaki va yozma nutqning muvaffaqiyatli tomoni hisoblanadi. "Qisqalik-talantning singlisi" deganda, A.P.Chexov tamoman haqli edi.

2. Afinada quldorchilik demokratiyasining gullay boshlash davri eramizdan ilgarigi V asrga - Perikl hukmronligi davriga to'g'ri keladi.

Perikl yirik siyosiy arbobgina bo'lib qolmay, ko'zga ko'ringa notiq ham edi. Perikl nutqlarining birorta teksti ham bizga qadar etib kelmagan. Lekin uning usta, ko'zga ko'ringan notiq bo'lganligi haqida grek tarixchisi Fukidid ma'lumot beradi. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, formaning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar psixologiyasi etiborga olinganligi bilan xarakterlanadi.

Aytishlaricha, bir vaqt Periklni Afinada bino qurish ishiga ko'p mablag' sarflashda ayblaydilar. Perikl xalq oldida o'zining qurilishiga ko'p mablag' sarflayotgani rostmi, bilib olmoqchi bo'ladi. Unga yig'ilganlar ko'p, ancha ko'p, deb javob qaytaradilar. Shundan so'ng Perikl binoning zarurligini gapirib, bino uchun sarflanadigan xarajatni o'z bo'yniga olganligini xalqqa e'lon qiladi va mazkur binoga faqat o'zining ismini yozishni shart qilib qo'yadi. Uning nutqidan mamnun bo'lgan xalq bino uchun nima kerak bo'lsa davlat xizinasidan olishga rozi bo'ladi.

4-ilova



Ifodali o'qishning rivojlana borishi uning prinsip va usullarini kashf etishga ham urinishga olib keldi. Natijada chiroyli so'zlash nazariyasi-ritorika

maydonga kela boshladi. Aristotelning fikricha, ritorika fanining birinchi asoschisi Epidokl bo'lgan. Lekin uning bu sohadagi ishi bizgacha umuman etib kelmagan. Epidoklning shogirdi Koraks ritorika haqida yangi ish yozgan bo'lib, u ham bizgacha etib kelmagan, faqat u haqda ayrim manbalarda ma'lumot berilgan xolos. Koraks chiroyli nutqni "Ishontiruvchi xizmatkor" deb ta'riflaydi.

3. Eramizdan oldingi V asr oxiri VI asr boshlarida yashab o'tgan ko'zga ko'ringan sud notiqalaridan biri Lisiy edi. U usta logograf ham bo'lib, o'z himoyasidagi ayblanuvchilarga nutq tekstini yozib berardi. Lisiyning notiqligiga xos xususiyatlardan biri, hamma notiqalar uchun zarur bo'lgan usul-fikrni yangicha shaklga solishni juda oson egallaganligidir. U gapirishi lozim bo'lgan kishining xarakterini, ijtimoiy ahvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq tekstini ishlab chiqishga usta Ediki, bu nutq faqat o'sha so'zlovchigagina xos bo'lardi

Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, himoyachilik san'atini egallab olganligidir. U har qanday voqelikni sodda, jonli, qiziqarli shaklda hiqoya qilishga usta edi. Uning Ifodali o'qishdagi uchinchi xususiyat-uslubidagi aniqlik, soddalik va tabiiylik edi.

Lisiy og'zaki nutqning ta'sirchanligida tabiiylikning rolini yaxshi tushunadi va uning asosiy xususiyatlaridan biri so'zlarni takrorlamaslik deb biladi. Uning fikricha, biror masala bo'yicha so'zlangan nutq ikkinchi takrorlanmasligi kerak, agarda, shu nutqni avvalgi tinglovchilar bir necha marta takror eshitsalar, nutq o'z kuchini va ifodaliligini yo'qotadi.

Bir kuni Lisiy o'z himoyasidagi kishilardan biriga nutq tekstini yozib beradi. U o'qib ko'rib juda minnatdor bo'ladi. Lekin bir necha kundan keyin bu muxim Lisiyning huzuriga qayta keladi va yozilgan nutqni qayta-qayta o'qigan sari unga yoqmay ketayotganligini aytadi. Lisiy esa unga: "Sen bir narsani unutyapsan, sud sening nutqingni faqat bir marta eshitadi", -deydi.

Bu juda to'g'ri ko'rsatma. Har bir lektor biladiki, bir auditoriyada ikki-uch marta bitta lektsiyani takror o'qish mumkin emas.

4. Qadimgi Gretsiyaning buyuk notiqalaridan biri Demosfendir.

5-ilova

Demosfen eramizgacha 384 yilda tug'ilib 322 yilda vafot etgan. U dastlab o'zini himoya qiluvchi sud notig'i sifatida tanilgan. Keyinchalik u logograflik qiladi. Unga Ifodali o'qish sohasidagi faoliyatida sharaf keltirgan narsa ulkan siyosiy nutqlaridir.

Demosfen Ifodali o'qishni o'rganish uchun juda ko'p vaqt safrlaydi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi-ovozi past va lektsiyasi yomon bo'lgan, kifti


asabiy ravishda titrab turgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Demosfen ovozi o'stirish uchun og'ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirg'og'ida nutq so'zlardi va to'lqin shovqin-suronni bosib ketishga harakat qilardi. Kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday ildirdiki, uning o'tkir uchi kiftga yaqin turadi va kifti titragudek bo'lsa, qilichning uchi tegib og'ritardi. Shu yo'sinda olib borilgan uzluksiz Mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergan.

Lekin Demosfen birdaniga o'z zamonasining taniqli notig'i darajasiga ko'tarila olmadi. U notiq sifatida birinchi chiqishdagi nutqi tinglovchilarga yoqmaganligidan, oxirigacha gapirolmay pand yegan bo'lsa, ikkinchisida uyalganidan, o'zini yashirishga joy topa olmay, uyiga chopadi. Shundan so'ng umidi chipakka chiqqandek bo'lganda, unga aktyor o'rtog'i Satir yordam qo'lini cho'zadi. U Satir yordamida so'zlarni talaffuz qilish asoslarini o'rganadi va o'z kamchiliklarini, yetishmovchiliklarni to'g'rilay boradi. Xullas, Ifodali o'qishni egallash uchun tinmay mehnat qiladi. Uning minbari paydo bo'li tinglovchilarda chuqur taassurot qildiradi boshlaydi.


Demosfen nutqi uning xarakterini aks ettiruvchi oyna edi. Undagi kuchli vatanparvarlik tuyg'usi nutqlarida o'z ifodasini topardi. Uning ko'pgina nutqlari makedoniyalik shoh Filippga qarshi qaratilgan bo'lib, uni Afina davlatining birdan-bir dushmani deb biladi va afinaliklarni dushmanga qarshi birlashishga chaqiradi.

Demosfen nutqlari juda ham jo'shqin va shiddatkorligidan, dushmanlari uni "yovvoyi hayvon" deb atashardi. U nutq so'zlashda maksimal ifodalilikka erishishga harakat qilardi. Keyingi paytda yozuvchilardan biri Demosfen nutqini xarakterlab shunday degan: "Demosfen nutqlari bir vaqtning o'zida ham dabdabali, ham sodda; ham favqulodda, ham oddiy; ham shirin, ham achchiq; ham jiddiy, ham bebosh, ham quvnoq, ham vazmin"

5. Demosfendan keyin o'zining notiqlik talanti bilan nom chiqargan Aristotel' eramizdan oldingi 335 yilda Ifodali o'qish nazariyasi- "Ritorika" asarini yaratdi. Bu asar uch qismdan iborat:



Aristotel' notiq uslubiga alohida e'tibor beradi. Aristotelning notiq uslubi haqida fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. U notiq nutqi uslubining layoqatliligi uning aniqligi bilan belgilanadi, deb juda to'g'ri ko'rsatadi. Agar nutq aniq bo'lmasa, notiq o'z maqsadiga erisha olmaydi, tinglovchilarga kerakli ta'sir etolmaydi. Taniqli filosof, ayrim notiqlar nutqida epitet, o'xshatish, metafora va boshqalarning o'rinsiz qo'llanishini qoralaydi va ularni to'g'ri qo'llay bilish nutqning ta'sirchanligini oshirishga muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadi.




Keyinchalik Rimda aka-uka Tiberiy a Kay Grakx, Mark Antoniy. Mark Tulliy Tsitseron kabi Taniqli qator notiqalar etishib chiqdiki, bular ichida eng buyuk va so'zamoli notiq Tsitseron edi. Tsitseron va Demosfen qadimgi notiqalarning eng buyuklari edi. Demosfen ko'proq o'zining siyosiy notiqligi bilan shuhrat topgan bo'lsa, Tsitseron sud notiqligi bilan tanildi. Albatta, Tsitseron nutqlari siyosiy jihatdan ham kuchli edi. Rimda, umuman, siyosiy tomonni chetlab o'tgan birorta yaxshi nutq bo'lmagan.

Tsitseron mukammal bilim oldi va Ifodali o`qishning muhim maktabini bitirdi. Tsitseron ijodida ikki an'ana asosiy rol' o'ynaydi. Bulardan biri, grek so'z ustalari maktabi keng bilim maydoni bo'lsa, ikkinchisi, eski Rim notiqdari tajribasi, birinchi navbatda Katon tajribasi edi.


Tsitseronning Ifodali o`qishdani muvaffaqiyatida uning tabiiy qobiliyati-ta'sirchanlik, hayotiy idrok, chuqur sezgirlik muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Lekin u hamma vaqt birinchi rejaga tug'ma qobiliyatni emas, mehnatni qo'yardi. U: "Kishi shoir bo'lib tug'iladi, notiq bo'lib etishadi",-deydi.

Tsitseron timsolida Ifodali o`qishning nazariyasi hayot tajribasi nazariyasi bilan muvaffaqiyatli ravishda qo'shib olib borildi. U Ifodali o`qish nazariyasining ayrim tomonlarini ishlab chiqibgina qolmay, o'z notiqlik chiqishlari bilan buni tajribada isbot etdi. Tsitseron nutqning muvaffaqiyatli chiqishi uchun notiq qo'yidagilariga alohida e'tibor berishi lozimligini ko'rsatadi:



Tsitseron nutqning tuzilishiga aloxida e'tibor beradi. Uning fikricha, xar bir nutq talabga javob berarli darajada qurilgandagina yaxshi natija beradi.

9-ilova



Tsitseronning o'zi ana shu o'zi tuzib chiqqan qoidaga qat'iy rioya qilardi.


Tsitseron uslubga, ibora shakliga, nutqdagi ayrim tomonlarning joylashtirilishiga alohida e'tibor beradi.

U notiqlikda "Tsitseron davri"ni yaratdi. U nutqda notiqlikning turli usullarini: ritorik savol, xitob, murojaat, takroriy kengaytirilgan usul va boshqalarni o'rinli qo'llay bilardi, nutqning obrazlilik,yaxlitligi hamda bir me'yorda tashkil etilishi o'ziga xos usulda olib borilardi.

Tsitseronning o'z muxolifi Katilinaga qarshi so'zlagan to'rt nutqi,uning yuksak maxoratidan va Ifodali o`qishning yuqori pog'onasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Tsitseron eramizdan ilgari 43 yilda vafot etdi. Tsitseronning notiqlik faoliyati o'rta asrlarda ham, hozir ham yuqori baholanib kelinmoqda. Ulug' Frantsuz revolutsiyasining yirik notiqdari Mirabo, Robesper va boshqalar Tsitseron ko'rsatmalariga amal qilganlar.

10-ilova



Tsitseron Ifodali o`qishda nutqni ifodalay bilishni juda yuqori baholaydi. Uning fikricha, yaxshi notiq nutqni ifodalay olmasligi, kishilarga etkaza bilmasligidan oddiy kishilar qatoriga tushib qolishi mumkin yoki aksincha, oddiy notiq nutqni yaxshi ifoda qilish bilin bilimli kishini engishi mumkin.

Nutqni tinglovchiga etkaza bilish hozirgi vaqtda ham muhim ahamiyatga ega. Ritmga, pauzaga e'tibor berilmay ifodasiz o'qilgan nutq, tinglovchilarda chuqur taassurot qoldirmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.O'rinboyev, A.Soliyev "Notiqlik mahorati" Toshkent. "O'qituvchi" 1984 yil
2. E.A.Adamov "Vidayushiesya oratorii drevnogo mira i srednix vekov" Moskva. 1961 g.
3. A.Ahmedov. "Ifodali o`qish" Toshkent. 1987 yil.
4. S.Imomxo'jayev "Ifodali o`qish asoslari" Toshkent. 1982 y.
5. A.Ortiqov "Ifodali o`qish va nutq madaniyati" Toshkent. 2002 yil.
6. A.Xo'jayev. "Ifodali o`qish" Toshkent. 1976 yil

3 - mavzu	O'zbek notiqlik san'ati tarixidan.
------------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. Ulug' so'z san'atkorlarining ifodali nutq va notiqlik haqidagi fikrlari. 2. Husayn voiz Koshifiy – iste'dodli suxandon, notiq va axloq targ'ibotchisi. 3 Xoja Muayyad Mehnagiy va Mavlono Riyoziy haqida. 4. Abu Nosir Farobiy va Abu Ali ibn Sinolarning notiqlik san'atiga qo'shgan hissalari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'rta Osiyo xalqlari IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflardan biriga ko'tarilganini misollar yordamida tushuntirish. O'rta asrlarda fan va madaniyatning rivojida Xorazmiy, Farobiy, ibn Sino, Beruniy, Koshg'ariy, Navoiy kabi ulug' siymolarning o'ziga xos orni borligini ko'rsatib berish. Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda juda ko'plab notiqalar yetishib chiqqanligini, ular asos solgan maktablar notiqlik tarixida katta o'ringa ega ekanligini tushuntirib berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- Notiqlik – so'z san'atining eng ommaviy janri bo'lib Sharqda voizlik deb atalishini tushuntirish; - O'rta Osiyoda yashab ijod etgan voizlar bilan tanishtirish; - Voizlikning kelib chiqish tarixi bilan tanishtirish.	- Nutq – va'z, notiq – voiz deb yuritilishini tushunib oladilar; - O'rta Osiyoda yashab ijod etgan Voiz Muhammad Rafi', Voiz Shirvoniy, Mulla Kalon Voiz Samarqandiy, Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy singari voizlar va ularning notiqlik nazariyasiga oid asarlari bilan tanishadilar. - Voizlikning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Guruhlar bilan ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. Ko'radilar, e'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Yozib oladilar. 2.2. E'tibor beradilar.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Reja asosida ma'ruzani bayon etadi.	
	3.1. Sharq va, xususan, O'rta Osiyoda juda ko'plab notiqar yetishib chiqqanligi haqida ma'lumot berish; 3.2. Voizlikning kelib chiqish tarixi bilan tanishtirish;	3.1. Sharq va, xususan, O'rta Osiyoda juda ko'plab notiqar yetishib chiqqanligi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. 3.2. Voizlikning kelib chiqish tarixi haqida bilib oladilar.
	3.3. A.Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida tilga olingan voizlar haqida nimalarni bilasiz?	3.3. Asarda keltirilgan ma'lumotlar haqida bilganlarini aytadilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga hulosasi yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalar reyting tizimida baholanadi. 4.2. Mustaqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Mavzu yuzasidan tushunmaganlarini so'raydilar, yozib oladilar. 4.2. YOzib oladilar. Mavzuga oid savollar bilan murojaat qiladilar.

REJA:

1. Ulug' so'z san'atkorlarining ifodali nutq va notiqlik haqidagi fikrlari.

2. Husayn voiz Koshifiy – iste'dodli suxandon, notiq va axloq targ'ibotchisi.

3 Xoja Muayyad Mehnagiy va Mavlono Riyoziy haqida.

4. Abu Nosir Farobiy va Abu Ali ibn Sinolarning notiqlik san'atiga qo'shgan hissalar.

2-ilova

Tayanch tushunchalar:

Nutq — va’z, notiq — voiz.
“Javohurut tafsir”, “Lubbi
lubob”, “Axloqi Muhsiniy”,
“Matla’ul anvor”,
“Hotamnoma”, “Majolis un-
nafois”.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham qadimdan so'zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelganlar. O'sha davrda Ifodali o'qish voizlik, notiqlar voiz, nutq esa va'z deb atalgan.

O'rta Osiyo xalqlari, xususan IX-XV asrlarda Dune madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, etakchi saflarida turish darajasiga ko'tarila oldi. O'rta asr Fani, madaniyati Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Jomiy, Navoiy kabi ulug' siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi.

Bu mutafakkir, shoir, san'atkorlar yashagan davr Sharq tarixida Uyg'onish davri deb ataladi. Bu davrda madaniyat, san'at, ilm-fan ravnaq topdi. Fan va madaniyat targ'ibotchilari-voizlar etishib chiqdi. Voizlikni qadrllovchi fikrlar vujudga keldi.

O'rta asr sharqining mashhur va buyuk mutafakkiri, tabobat bilimining asoschilari biri Ar-Roziyning (IX asrning oxiri X asrning boshlarida yashab o'tgan): "Shoirlarning she'rlari, va'zxonlarning va'zi Qur'onga qaraganda ma'noliroq va mantiqiyroqdir"¹ -degan so'zlaridan o'sha davrda xalqlarning din ahllariga, targ'ibotchilariga nisbatan va'zxonlarni-voizlarni qanchalik yuqori qo'yganligini va ularni hurmat qilganligini qo'ramiz.

2. O'rta Osiyoninggina emas, balki Yaqin va O'rta Sharqning mashhur mutafakkuri Abu Nosir Farobiy ham IX-X asrlarda iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda yashab ijod etdi. U ilmnining turli sohalarini mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan buyuk insondir. Nutq va aql tarbiyasiga oid tillar to'g'risida Farobiy shunday yozadi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodlash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi, jismlarga, ya'ni substantsiya va aktsidentsiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aktsiyadentsiyaning joylashishini va bunda chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm mantiq (logika) dir: ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qnday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarimizni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz".

Farobiyning aytishicha, mantiq shunday bir san'atki, kishi notiqlikdan adashib qoladigan bo'lsa, to'g'ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror xulosa chiqariladigan bo'lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o'z ichiga oladi. Uning aqlga munosabati grammatika san'atining tilga munosabati kabidir.

Nutq va Ifodali o'qishda logika va grammatikaning rol berilgan bunday baho nazariy jihatdan katta qimmatga ega bo'lib, Ifodali o'qish taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

Farobiy axloqiy kishilarning o'n ikki muhim sifatini ko'rsatadi ana shundan beshinchisi sifatida tilga olingan notiqlik haqida gapirib: so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin", -deydi. Farobiyning chiroyli, tartibli, ta'sirchan qilib so'zlash masalalari haqiagi ba'zi mulohazalari ritorika, poetikaga oid asarlarida uchraydi. Farobiyning o'zi esa, manbalarda zikr etilishicha, shirin so'z, hozirjavob, har qanday qiyin masalani ham bir zumda hal etib beruvchi faylasuf-notiq bo'lgan.

Falsafa fanlari doktori M.Hayrullayevning ta'kidlashicha, Farobiy qadimgi grek falsafasi va ilmi bilan juda ko'p shug'ulangan va grek olimlarining, xususan, Arestotelning asarlariga mukammal sharhlar yozgan.

Qadimgi Gretsiyada boshqa fanlar bilan birga ritorika-Ifodali o'qish haqidagi fan ham yuksak taraqqiy etgan edi. O'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, Farobiyning bu sohaga ham qarashli fikrlari sharhlari mavjud bo'lib uni o'rganib chiqish problematik masaladir.

O'rta asr Sharqining buyuk allomalari orasida mashhur tabib, falsasuf, shoir Abu Ali Ibn Sino (980-1037) alohida o'rin tutadi. Uning turli sohalar bilan birgata'lim-tarbiya, axloq va nutq haqida ham fikrlari mavjudki, ularni o'rganib chiqish Ifodali o'qish tarixi sahifalarini yana bir boyitgan bo'lardi, Ibn

Sino yaxshi tarbiyachi, notiqni yaxshi do'st sifatida tilga oladi va do'stlik uch turga bo'ladi:

1) har qanday vaqtda, qiyinchiliklarga qaramay, o'z o'rtog'ini xavfda qoldirmaydigan chin do'st;

2) manfaatlarning umumiyligiga va g'oyaviy yaqinlikka asoslangan do'stlik;

3) o'zining egistik ehtiyoji va manfaatini qondirishga asoslangan do'stlik.

Bulardan birinchisi va ikkinchisi haqiqiy bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Yaxshi do'st qaysi yo'l bilan axloqiy kamchiliklarni tuzatishda boshqalarga yordam berishi mumkinligi masalasiga Ibn Sino alohida e'tibor beradi va notiq quyidagilarga amal qilishi lozim deb biladi.

5-ilova

1. Nasihat qo'pol ohangda berilishi kerak emas;
2. Suhbatdoshning ilm darajasini hisobga olish zarur;
3. Nasihatga (va'zxonlikka) ko'p berilmaslik kerak, uni o'rtoqlik suhbat tarzida olib borish kerak;
4. Nasihatni muloyim ohangda, yolg'iz olib borish kerak;
5. Agar ta'na qilmoqchi bo'lsang, boshqalarga kamchiligi bilan qiyoslab ta'na qil;
6. Agar o'z e'tiqodingni aytmoqchi bo'lsang, faqat bir faktga tayanma, balki ko'p masalalar bilan isbotla, suhbatdoshingni buni yuragiga yaqin olishga, shu narsa haqida o'ylashga va haqiqatni izlashga ishontir.
7. Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e'tibor bilan quloq solayotgan bo'lsa, suhbatni oxirigacha davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin uning e'tiborisizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.

Ibn Sino suhbat o'tkazishdan ilgari, suhbat o'tkazuvchi kishining o'z suhbatlari qaratilgan predmetning, shaxs faoliyatini chuqur, har tomonlama o'rganishi, biror kamchilikni ham chetlab o'tmasligi lozimligini, shundagina o'tkaziladigan suhbatning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lishini aytadi. "Agar biror kamchilik e'tibordan chetda qolsa,-deydi u, -butun mehnat zoe ketadi va istalgan natijaga olib kelmaydi". Suhbat mavzuida e'tibordan chetda qoldirilgan, lekin aytish lozim bo'lgan kamchiliklarni Ibn Sino "sirti tuzalgan, lekin ichida yiringlab ketgan yara"ga o'xshatadi. "Vaqt bilan yiringga o'xshab kamchilik kuchga kiradi va o'zining yaramas va bema'no qiyofasini ko'rsatadi",-deydi u.

Ibn Sinoning fikricha, Ayniqsa hukmdorlar ana shunday suhbatlarga tortilishi lozim. Odamlar hukmdorlardan qo'rqishi tufayli,-deydi Ibn Sino,- ularning kamchiligi ko'rsatilmaydi. Buning natijasida ular o'z qilmishlarini idial deb hisoblaydi va xulqlari buzila boshlaydi, bu hol davlat ishiga yomon ta'sir qiladi". Bunday paytda qo'rqmasdan xatolarni ko'rsatish davlatning mustahkamlanishida katta ahamiyatga ega ekanligini uqtirdi. Bu Ibn Sinoning notiqlikda demokratiya bo'lishini juda ham yoqtirganligini, o'z davrida bunday demokratiyaning yo'qligiga qarshi e'tirozini ko'rsatadi. Ibn Sino Ifodali o'qishda hamma narsani ochib tashlash haqidagi bu ko'rsatmasi o'z davrida-tengsizlik hukm surgan bir davrda katta jasorat bo'lib muhim ahamiyatga ega edi. Uning qimmat, notiqlikni o'z-o'zini tanqid asosida olib borishga yo'l ochilgan hozirgi davrda ham kattadir.

Kaykovusning XI asr shar-q pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi "Qobusnoma"sida ham notiqlik sharhlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'atga bo'lgan, uning san'atkoriga bo'lgan qiziqishning orta borganligini ko'rsatadi. "Qobusnoma"ning "suhandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida" deb nomlangan etinchi bobida va hunarni egallashga bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir ayrim to'g'ri mulohazalar bildiriladiki, bu o'sha davrda katta ahamiyatga ega bo'lgan va hozirda ham uning foydali tomonlari ko'zga tashlanadi.

"Qobusnoma" avtor hamma hunarlar ichida so'z hunari-notiqlikni a'lo deb biladi: "Bilgilki hamma hunardan so'z hunari yaxshi"¹. Shu tufayli, "Kishi suhandon va notiq bo'lishi lozim"-deb ko'rsatadi. Avtor notiqlikni egallashning yo'li, birinchidan, tinimsiz mehnat o'rganishdir.

Ikkinchidan, nutqing go'zal bo'lsin-deydi. "So'zning ikki tomoni bordir: biri go'zal tomoni, ikkinchisi hunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan szing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin".

Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to'g'ri yo'l topa bilish, shaklga e'tibor berish masalasi. "Ya'ni bir so'zni bir ibora bilan aytsa eshitgan kishining ko'ngli parishon bo'ladi, shu so'zni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko'ngli bahra oladi". Avtor o'z fikrini isbotlash uchun qo'yidagi hikoyatni keltiradi:

"Shunday deb eshitdimki, bir kecha Xorun-ar Rashid bir tush ko'rdi, ya'ni og'zidagi hamma tishlari to'kilib tushgan emish. Ertalab turib, bir ta'birchini chaqirib so'radiki, bu tush ta'biri nimadir. Ta'birchi dedi: "Ey amiralmo"minin, sening huzuringda barcha qarindosh-urug'laring o'ladi, sendan boshqa hech kim qolmaydi".

Xorun-ar Rashid dedi: "Mening yuzimga shunday dard-anduh bilan to'lgan so'zni aytasan-mi? Agar mening hamma qarindoshlarim o'lsalar men nima ish qilaman va qanday qilib kun kechiraman?"-deb ta'birchini yuz tayoq urishga buyurdi. So'ngra boshqa bir ta'birchini chaqirdi va tushining ta'birini so'radi. Ta'birchi dedi: "Ey, amiralmo"minin, sening umring barcha qarindoshlaringning umridan uchun bo'ladi". Xorun-ar Rashid dedi: "Barcha aqlning yo'li birdir va ikkovining ta'biri bir erdan chiqadi. Ammo, yuqoridagi ta'birchining iborasi bilan keyingi ta'birchining iborasida farq kattadir" va keyingi ta'birchiga 100 tillo berishni buyurdi"2.

Bu erda albatta tushning ta'biriga ishonsh avtorning diniy qarashdan chetga chiqqanligini ko'rsatsa-da, fikrning to'g'ri va ta'sirchan ifodalanishi katta ahamiyatga egadir.

To'rtinchidan, har bir so'z to'g'ri va asosli bo'lmog'i lozimligi uqtiriladi.

Beshinchidan, har bir nutq ma'lum ilmiy asosga ega bo'lsagina, ta'sirchan bo'ladi, Ya'ni nutq qaratilgan predmetni yaxshi o'rganib chiqish lozimligini uqtirib: "Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm ma'rifatni bilaman deb, da'va qilsang hech narsa hosil bo'lmaydi va behuda zahmat chekasan",-deydi.

Oltinchidan, "Ilgari o'ylash bir nav karomatdir. Ya'ni tayyorgarliksiz nutq bo'sh chiqadi.

Yettinchidan, kamtarlikni ulug'lab: "Har qancha donno bo'lsang ham, o'zingni nodon bilgil, toki senga ilm o'rganish eshigi ochiq bo'lg'ay",-deydi.

Sakkizinchidan, tinglovchining xarakteriga qarab ish tutish lozimligini o'qtirdi.: "Amaldorlar bilan amaldordek, oddiy odamlar bilan oddiy odamlardek so'zlashgil, (bunday vaqtlarda ham) donishmandlik chegarasidan chiqma, sening so'zing eshitgan kishiga og'ir tuyulmasin, (agar shunday bo'lmasa) sening so'zingni hujjat va dalil bilan ham eshitmaydilar".

To'qqizinchidan, nutqda qisqalik, aniqlik bo'lishi kerakligini aytadi. "Ko'p bil-u, oz so'zla... Shunday so'zlagilki, bu so'z... bekor va zoe ketmasin".

O'ninchidan, "So'z eshitishdan qochma, kishi so'z eshitish bilan notiq bo'ladi", "Odamlar orasida o'zingni odamlardek tut, insonga insondek munosabatda bo'l", -deb ta'kidlaydi.

Nutqni egalashdan maqsad xalq diliga yo'l topa bilishdir, deb biladi avtor va "agar kngillarga sevimli bo'lishni istasang, xaloyiqning maqsadini so'zla".-deydi.

Umuman, "Qobusnoma"da notiq bo'lish fazilatlarini va yo'llar haqidagi nasihatlar cheklangan bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda agitator, tashviqotchi

va notiqning o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tomonlari bor.

5. Umuman, musulmon sharqi madaniyatining salmoqli zarvaraqlarini tashkil etuvchi ifodali o'qish tarixiga oid talaygina manbalar bor bo'lsa-da, ulardan hech biri Alisher Navoiy qoldirgan meros kabi qimmatli va boy emas.

Alisher Navoiy o'z davrining buyuk mutafakkiri, so'z ustasi bo'lish bilan birga kishilarga yaxshi so'z bilan ta'sir etish san'atini juda ham qadrllovchi, ulug'lovchi, bunday san'at ustalariga e'tibor qilib, ehtirom ko'rsatuvchi bir shaxs edi.

"Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila"

deb har bir kishini o'zining bilimli bo'lib etishishiga sababchi bo'lgan ustozini e'zozlashga da'vat etgan Alisher Navoiy omma o'rtasida yaxshi nutqning ta'siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Navoiy notiqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko'ra bilish va ularni farqlay olishga chaqiradi:

to'tiyu shoriy agar notiqdurur,
Har biriga o'zga bir mantiqdurur¹

Alisher Navoiy ifodali o'qishning buyuk qudratiga alohida e'tibor beradi. A.Navoiy "Mahbubul-qulub" nomli falsafiy asarining 24-faslini "Nasihat ahli va voizlar zikrida" deb ataydi va bunda voizlik san'atiga, va'zga, voizga o'z munosabatini bildiradi. A.Navoiyning voizlik san'ati haqidagi fikrlari diniy qarashlardan xalos bo'lmagan bo'lsa-da, bu san'atning xarakterli yana muhim tomonlarini e'tirof etadi. Navoiyning fikricha, voiz qo'yidagi hususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

1. Voizning so'zlari ta'sirchan va foydali bo'lmog'i lozim. Voiz kerakki, "qolaloh" so'z aytsa.

2. Nutq tinglovchi uchun yangilik bilimlar va o'zgarishlar xabarchisi bo'lmog'i lozim. "Va'z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur"².

3. Notiqning o'zi biror sohani egallagan bo'lishi va undan so'ng va'z orqali kishilarga ta'sir etishi lozim.

Avval bir yo'lni bormoq kerak,

Andin so'ng elni boshqarmoq kerak"³

4. Notiq olim va bilimdon har nasadan habardor kishidir. "Voizkim, bo'lg'ay olim va muttahiyaning nasihatini chiqqan shahiy"⁴.

5. Notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmog'i lozim. Aks holda nutqning ta'siri bo'lmaydi. "Ulki buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay"⁴

Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jihatdan uning "Mahbubul qulub" idagi 60 tanbehi o'rinlidir. "Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar. Ko'p deguvchi mumil, muqarra deguvchi loya'qil" (ya'ni: Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi. Ko'p so'zlovchi zeriktiruvchi, qayta gapiradigan-aqldan ozgan),-deydi. Ututuruqsiz gap bilan kishilarning g'ashiga teguvchilarni aqli past, nosog'lom kishilardir deb baholaydi: "Ulkim, dimog'ida habt-so'zida yo'q rabt (kimning dimog'ida illat bo'lsa, so'zida bog'lanish yo'q). Dimog'i sahih-g'uftori fasih (Miya sog'lom bo'lsa, gap-so'z ham yoqimli va xatosiz bo'lur). So'zi hisobsiz-o'zi ixtisobsiz (boshvoqsiz). So'zida parishonliq, o'zida pushaymonliq"¹

Navoiy so'zning hashamdorligidan ko'ra, haqqoniyligini ulug'laydi. Fikrning xalq uchun foydali va tushunarli bo'lsin desang, sodda tilda gapir, deydi: "so'zki fasohat zevaridin muzayyan emasdir, anga chinlik zevari basdur. Yolg'onchi har n7echa so'zida fasihiroq so'zi qabihroq. Chin so'z nechakim betakalluf, qoyilg'i iborat soddalig'idin yo'q taassuf"².

Alisher yaxshi so'zli, el uchun foydali notiq'larga yon bosadi. Ularning xizmatini masjid imomlarining qilayotgan ishlaridan yuqori qo'yadi. Shu tufayli ular uchun imom'larga nisbatan ancha ko'p mablag' ajratishni tavsif etadi: "Voizga yillik naqdi besh yuz oltun, bug'doy o'n yuk. Imomg'a masjidi jome'da xatib bo'lib maktabdag'i tutg'ay, yillik naqdi ikki yuz oltun, bug'doy o'n yuk".

6-ilova

Alisher Navoiy o'sha vaqtda voizlik san'atida nom qozongan - Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Mavlonov Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voizlar haqida o'zining "Majolisun nafa'is" nomli tazkirasida fikr bildirgan.

Alisher Navoiy qadrlagan voizlardan biri -Xoja Muayyad Mehnagiy mashhurgina emas, balki notiq donishmanj, yuksak bilim egasi, mavjud bilimlarni o'rganib qolmasdan, ularni takomillashtirgan, to'ldirgan. U mozorda shayxlik qilsa-da, o'zini xalqqa juda yaqin tutgan va o'z bilimini o'larga berishga intilgan. Uning "va'z majolisi bag'oyat garm va pursho'r voqe' bo'lur erdi" .

O'sha davrning mashhur notiq'laridan biri Mavlono Riyoziyning notiqlik faoliyatida nutqni harakat bilan, mimika bilan qo'shib olib borish uchun bo'lgan. U o'z nutqini aktyorlar kabi ijro etgan. Navoiyning yozishicha: "Va'z

aytib minbarda o'z ash'orin o'qur, yig'lab vajdi hol qilur"⁵. Ko'rinadiki, Riyoziy nutq so'zlaganda, uning ta'sirchanligi ta'minlashda, ijrochilikni birinchi o'ringa qo'yadi. Kerak bo'lganda, o'z nutqini kishilar qalbiga yaqin olib, ular bilan birdamlikni, qayg'usiga, iztirobiga sheriklikni bildirish maqsadida yig'lashgacha borib etadiki, bu nutq ijrochiligidagi ulkan qobiliyatdandalolat beradi.

Mavlono Riyoziyning xalqqa yaqinligini, nutqning ta'sirchan va emotsionalligini ta'minlashda, uning ijtimoiy kelib chiqishi va ahvoli xam muhim rol' o'ynaganligi ko'zga tashlanadi. Riyoziy avval Zova viloyatida qozi bo'ladi. Navoiyning fikricha, u o'rinsiz xatti-harakatlari uchun qozilikdan bo'shatiladi va buyrug'i bilan kishanga solinib, badarg'a qilinadi. Lekin, Navoiy uning qanday gunox bilan badarg'a qilinganligini ochiq aytmaydi. Cheksiz musibat, zaxmatlar, faqirona hayot uning o'z davriga nisbatan noroziligini kuchaytirda va bu, albatta, uning voizlik faoliyatida xam aks etgan bo'lib, uning nutqlarimehnatkashlar orasida zo'r e'tibor qozongan.

Alisher Navoiy tomonidan hurmat va ehtirom qilingan notiqlardan yana biri Husayn Voiz Koshifiydir. U sabzavorlik bo'lib, tug'ilgan yili noma'lum, 1604-1605 yillarda vafot etgan. Husayn Voiz Koshifiy voiz sifatida o'sha davrda eng mashhur kishilardan bo'lishi bilan birga, o'z davrining zabardast olimi, astronomi, shoiri edi. Eron olimi Said Nafisiy Koshifiyning 40 ta asari borligini aytadi. Navoiyning e'tirof qilishicha, Husayn Voizning "Oz fan bo'lg'aykim, daxli bo'lmag'ay, xususan, va'z, insho (nasriy she'r usulida yoziladigan xat) va nujumki (yulduzshunoslik, astronomiya), aning haqqidir va har qaysisida muta'yyin (ko'zga ko'rinarli) va mashhur ishlari bor...". Uning nutqlari jo'shqin va ehtirosli bo'lganligidan kishilarni ko'plab jalb etar edi.

Husayn Voiz nutqlarining ta'sirchanligi, jozibadorligi haqida eslab, uning o'g'li Faxriddin Ali Safiy "Latoyifut tavoyif" nomli asarida shunday voqkani keltiradi:

"Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid G'iyosiddin degan mashhur so'z ustasi ancha kechikib kelgan. Shu majlisda Abdurahmon Jomiy ham bor ekan. Sayid G'iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so'rabdi:

---Nechuk kechikdingiz, Mavlono G'iyosiddin?

---Meni ma'zur tuting, ustod, --debdi G'iyosiddin, --kelayotgan edim, masjidi jome'da Husayn Voiz nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman"

Ko'rinadiki, Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari o'zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan. Aytishlpricha, uning bunday so'z san'atidagi mahoratini Alisher Navoiy bilan birga Sulton Husayn Boyqaro ham yuksak baholagan va ular o'z asarlvrini aholi o'rtasida rasmiy ijro etish lrozim bo'lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voizni munosib ko'rganlar. 898(1492) yil 8 noyabr kuni buyuk shoir, Navoiyning ustodi Abduraxmon Jomiyning dafn marosimida Alisher Nnavoiy o'zining bag'ishlov she'rini o'qib eshittirishni, shu marosimda va'z aytgan Husayn Voizga topshirganligi buning dalilidir.

Ma'lum bo'lishicha Husayn Voiz o'ziga shogirdlar ham tayyorlagan. Bulardan biri uning o'z o'g'li Fahriddin Alidir. Fahriddin Ali otasi kabi o'tkir, jo'shqin notiq bo'lib etishish bilan birga, turli bilimlarni egallagan bilimdon, shoir ham bo'lgan.

Husayn Voiz Koshifiy notiq sifatida shunday e'tiborli bo'lganki, Xondamirning yozishicha, u aniq jadval bilan ishlashga majbur bo'lgan.


Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari mazmundorligi, ta'sirchanligi, o'ziga jalb etish quvvatini mujassam etganligi uning texnikasini o'rganish hozirgi davr notiqligi uchun ham xarakterlidir. Lekin o'z davri hukmron ideologiyasi nuqtai nazarida turganligi, o'z davri qobig'idan chiqa olmaganligi, uning nutqlari din targ'ibotchisi sifatida reaksiya rol' o'ynaganligini ham ko'rsatadi.

Alisher Navoiy davridagi mashhur notiqlardan biri Mavlono Muin Voizdir. U haqda Navoiy: "Holo o'zi dag'i azim voizdurur va muridlari ko'p",-deb yozadi. Ko'rinadiki, Muin Voiz notiqqina bo'lib qolmay, o'zining notqlik maktabiga, shogirlariga ham ega bo'lgan. Uning nutq, ijrochilik mahoratini tahlil etib, A.Navoiy: "Minbar ustida devonavor ilk tashlamog'i va taxtani tepmagi ko'pdur va o'zin "Muin devona" bilan ta'bir qilur va ko'p baland va past so'zlar aytur. Chin junung'a mu'tarif har nav so'z aytsa mazurdur..."-deb yozadi.

Bundan anglashiladiki, Muin Voiz nutqning ijrochilik tomoniga alohida e'tibor qilgan va butun xatti-harakatlarini, mimikasini ishga sola bilganki, garchi u o'zini "Muin devona" deb e'lon qilgan bo'lsa-da, uning "devona sifat" gaplari xalq diliga yaqin bo'lganligidan yig'ilganlarga manzur bo'lgan.

U har qanday mansabdan voizlikni a'lo bilgan va o'z akasi Mavlono Nizomiddin unga Hirot shahri qoziligini ikki marta tavsiya etsa-da, uni rad etgan. Shu tufayli, uning akasi: "Muini mo qobiliyati bis'yor dosht, fayli, uning zinopoyai cho'bin o'ro zoe' soxt" (Muinimizning qobiliyati ko'p edi, uni bu yog'och zinapoya (minbar) ishdan chiqardi) deganligini Navoiy qayd etadi.

Alisher Navoiy yashab, ijod etgan davrda, undan ilgariroq ham notqlik yuksak darajada qadrlangan bo'lsada, o'sha davr notiqklarining nutq tekstlaridan namunalar bizgacha yetib kelgan emas.



Voizlik san'ati keyinchalik ham an'anaviy suratda taraqqiy etib, rivojlanib bordi. Masalan, Muqimiy o'zining "Sayohatnoma" asarida:

"Bir ma'raka ko'rdim butun,
Jami'i yopingan boshga to'n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun,
Voiz so'zin tinglar ekan".

deb yozganligi buning yaqqol dalilidir.

O'zbek xalqi o'zining boshqa yuksak madaniy meroslari qatori, Ifodali o`qish an'alariga ham egaki, uni chuqur tekshirish ushbu soha tadqiqotchilari va muxlislarining navbatdagi vazifalari bo'lmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.O'rinboyev, A.Soliyev "Notiqlik mahorati" Toshkent "O'qituvchi" - 1984 yil
2. M.Usmonov "O'rta asr Sharqining buyuk mutaffakkiri Ar-Roziy" Toshkent-1968 yil, 25-bet.
3. Abu Nasr Farobiy. Risolalar. O'z.asr. "Fan" nashriyoti" Toshkent-1975 yil, 54-bet, 136-bet.
4. M.Barotovning "ibn Sino etikasi" Toshkent-1969 yil 20-21-betlar.
5. Kaykovus "Qobusnoma" "O'qituvchi" nazriyoti, Toshkent 29-38-39-betlar.
6. Alisher Navoiy. Asarlar. 13-tom. G'ofur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent-1966 yil 23-bet
7. Alisher Navoiy. Asarlar, 11-tom, 222-bet
8. Alisher Navoiy, Asarlar, 13-tom 25-bet.
9. O'sha kitob, 63-bet.
10. O'sha kitob, 178-bet.
11. Alisher Navoiy, Asarlar, 12-tom 42-bet.
12. O'sha kitob, 101-bet.
13. O'sha kitob, 123-124-betlar.
14. S.Imomxo'jaeva, Alisher Navoiy Ifodali o`qish haqida. Toshkent-1968 yil 13, 17-betlar.
15. T.Qudratov "Nutq madaniyati asoslari" Toshkent-1993 yil.
16. A.Ortiqov, A.Ortiqov "Ifodali o`qish va nutq madaniyati" Toshkent 2002 yil.

4 - mavzu	Ifodali o'qish vositalari.
------------------	-----------------------------------

4.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	1. Ifodali o'qishning muhim vositalaridan biri nafasdir. 2. Ovoz va uning hosil bo'lish manbalari. 3. Unli tovushlar talaffuzi. 4. Undosh tovushlar talaffuzi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ifodali o'qish jarayonida nafas, ovoz va nutq a'zolari faol ishtirok etishini, nutq a'zolarini faollashtirishga ko'maklashuvchi mashqlar majmuasiga nutq vositalari deyilishini tushuntirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- Ifodali o'qishda nutq a'zolarining ishtirkoni tushuntirish; - Unli fonemalarni bir-biridan farqlashni o'rgatish; - Undosh fonemalarni shovqin va ovozning ishtirokiga ko'ra 2 guruhga ajralishi haqida tushuncha berish.	- Ifodali o'qishda nutq a'zolarining ishtirkoni tushunib oladilar; - Unli fonemalarni bir-biridan farqlashni o'rganadilar. - Undosh fonemalarni shovqin va ovozning ishtirokiga ko'ra 2 guruhga ajralishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster, kichik guruhlar bilan ishlash.
O'qitish vositalari	Proyektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Guruhlar bilan ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

4.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Yozib oladilar. 2.2. E'tibor beradilar.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Reja asosida ma'ruzani bayon etadi. 3.1. Savollarga berilgan javoblardan kelib chiqib, yangi mavzu bayoni bilan tanishtirish; 3.2. Rejaga asosan ifodali o'qish vositalari bilan tanishtirish; unli tovushlar talaffuzi, undosh tovushlar talaffuziga alohida to'xtalib o'tish; 3.3. Ifodali o'qish jarayonida nafas, ovoz va nutq a'zolarining faol ishtirokini misollar yordamida ko'rsatish.	Rejaga asosan ifodali o'qish vositalari bilan tanishadilar; unli tovushlar talaffuzi, undosh tovushlar talaffuzi haqida, Ifodali o'qish jarayonida nafas, ovoz va nutq a'zolarining faol ishtirokini bilib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga hulosasi yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalar reyting tizimida baholanadi. 4.2. Mustaqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Mavzu yuzasidan tushunmaganlarini so'raydilar, yozib oladilar. 4.2. YOzib oladilar. Mavzuga oid savollar bilan murojaat qiladilar.

REJA:

1. Ifodali o'qishning muhim vositalaridan biri nafasdir.
2. Ovoz va uning hosil bo'lish manbalari.
3. Unli tovushlar talaffuzi.
4. Undosh tovushlar talaffuzi.

Tayanch tushunchalar:

Nutq vositalari; ovoz yorug'i;
tembr; diksiya; fonetik
akustika; portlovchi;
sirg'aluvchi undosh
tovushlar; affrikatlar
shovqinlilar sonorlar;
portlovchi, sirg'aluvchi,
affrikatlar.

Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, lekin ayni bir vaqtda ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, nutq ham til ham bir-biriga bog'langan, ular birlikda mavjuddir. Bu birlik shundan iboratki, har biri til taraxiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog'lash protsessi vujudga kelgan va o'sib borgan. Har bir tilning yashab turishi kishilarning shu tilda gaplashuviga bog'liq. Agar odamlar biror tilda gaplashmay (nutqiy aloqa qilmay) qo'ysalar, but il yo'q bo'lib ketadi. Masalan, qadimiy grek (Yunon), lotin tillari mana shunday "o'lik" tillardir.

Nutqda fikrlar bilan birgalikda his-tuyg'ular ham ifodalanadi. Nutqda berilgan har bir so'zda notiqning mehri, g'azabi, qrquvi, muhabbati, hurmati, nafrati ongli ravishda yoki beixtiyor namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, notiqning intonatsiyasida uning holati-horg'inligi, umumiy hayajoni, o'ziga bo'lgan ishonchi va ishonchsizligi va shu kabilan ifodalanadi.

Grammatika qoidalari asosida tuzilgan nutq so'zlardan iborat bo'ladi. Lekin bundan, gaplarda ifodalangan fikr shu gaplar tarkibiga kirgan so'zlar ma'nosining jamidan iborat bo'ladi, degan ma'no yaiqmaydi. Gapda ifodalangan fikr yoki boshqacha qilib aytganda, nutqning ma'nosi, shu gapni tashkil etgan so'zlar ma'nosining jamidan hamisha keng va boy bo'ladi. So'zlarning ma'nosi bilan nutqning mazmuni bir-biriga aynan teng bo'lmaydi. Buni shundan bilish mumkinki, muayyan bir ma'nodagi so'zlar, ularning formalari va gapdagi o'rinining o'zgarishlariga qarab, turli ma'no oladi. Masalan, notiq, tinglovchi, so'ramoq degan so'zlarning har biri o'z ma'nosiga ega. Lekin bu uch so'z hali hech qanday fikrni ifodalamaydi. Endi bu so'zlarni biriktirib, gap tuzaylik: Notiq, tinglovchilardan so'radi. Bunda so'zlar ma'nosining jamigina tushunilmay, balki nutqdagi fikr ham tushunilmay, balki, nutqdagi fikr xam tushuniladi. Shu so'zlarni boshqa bir tartibda o'zgartirib gap tuzsak, boshqacha fikr hosil bo'ladi: tinglovchilar notiqdan so'radilar.

O'zbek tilida so'z birikmasi komponentlarining o'rnini almashtirish ularning ma'nolariga ta'sir etadi. Masalan, soat to'qqizda keldi, to'qqiz soatda keldi, yangi uy, uy yangi; og'ir ish, ish og'ir.

O'zbek tilida gapdagi so'zlarning o'rnini o'zgartirmasdan, so'zning shaklinigina o'zgartirish bilan nutqning va har qaysi so'zning maxnosi ham o'zgaradi. Masalan, U Karimni so'radi, U Karimdan so'radi.

Har bir tilning o'ziga xos grammatik tuzilishlari bo'lib, notiq nutqining qay darajada o'sganligi, qay darajada takomillashganligi faqat so'z zapasining boyligiga va xilma xilligiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki, avvalo, shu notiqning o'zi gaplashadigan tilning grammatikasining qay darajada bilib olganligiga ham bog'liqdir.

Bir me'yorda so'zlangan nutq lektsiyaning yaxshi tushunib olinishiga yordam bermaydi, shuning uchun nutqni turli tuman formalar bilan boyitib borish kerak. So'z birikmalarining soddaligiga va aniqligiga qat'iy rioya qilish notiq nutqining ta'sirchanligini, tushunarligini oshirishda zaruriy shartdir.

Og'zaki nutqning stilistik madaniyati tinglovchilariga ta'sir etishning ma'lum vositasidir. Odatdagi nutqlar ishchanlik, ilmiylik, notiqlik xarakterida bo'lib, uslublarining bir-biridan farqi borligini ko'rsatadi.

Nutqning stilistik madaniyati tinglovchilarga ta'sir etishning ma'lum vositasidir, chunki so'zlovchi leksik, grammatik normalardan to'g'ri foydalana olsa, o'z fikrini stilistik nuqtai nazardan to'g'ri ifodalashga harakat qiladi. Agar to'g'ri foydalanmasa, nutq stilida g'alizlik kamchilik seziladi. Shuning uchun sodda, tushunarli tilda gapirish kerak.

Sodda, tushunarli tilda gapirish uchun maxsus stilistik usullar: ellipsis, takror, ritorik so'roq, ritorik murajaat, xitob, graditsiya, antiteza, sintaktik parallelizmlardan foydalana bilish kerak.

Nutqning til madaniyati mimika va qo'l harakatlari madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Notiq nutqining ta'sirchanligini oshirishda mimika va qo'l harakatlari ham muhim rol' o'ynaydi. Mimika va imo-ishoralar nutqning emotsional (hissiyot) tomonlarini ifodalab beradigan ixtiyorsiz harakatlardan yoki gapiruvchi odam o'z nutqining ayrim joylarini uqtirmoq, bo'rttirib ko'rsatmoq uchun atayin ravishda qiladigan harakatlardan iborat bo'ladi. Notiqning o'z nutqiga qanchalik berilganligi, uni kishilarga etkaza bilishi ifodali harakatlarida namoyon bo'ladi. Notiq ifodali harakatlar yordamida nutq qaratilgan predmet yoki voqelik haqidagi o'z tasavvurini, kechinmalarinigina tinglovchilarga etkazib qolmasdan, balki shu bilan birga, tinglovchilarda ham shu predmet yoki voqelik haqida tasavvur to'g'rida bilishi, yangi kechinmalar paydo qilishi mumkin bo'ladi. Notiq-lektorning ifodali harakatlari tejalgan, tabiiy va shu bilan bir qatorda lektsiyaning xarakteriga monand bo'lishi kerak. Qo'l yurak amri bilan harakat qildirilishi lozim. Bunda albatta, notiq-lektorning o'z kasbiga, nutq qaratilgan ixtisoslikka bo'lgan mehri muhim rol' o'ynaydi. Ortiqcha va sun'iy harakat tinglovchilarning asabiga tegadi va ularni charchatadi. Aksincha, bir me'rdagi harakatlar, mimikalar va yurish-turishlar ham tinglovchilarga yomon ta'sir etadi.

Til, nutq va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Odam nutq va til vositalari bo'lmasa, fikr qilolmaydi. Nutq fikrlash qurolidir. "Xuddi ong kabi, til ham faqat ehtiyot tufayligina, boshqa odamlar bilan aloqa qilish zaruriyati tufayli paydo bo'ladi". Fikrning realligi til yordamida ifoda qilinadi. O'z navbatida, tafakkur bo'lmasa nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi.

Tafakkur taraqqiyot tarixida tilning roli qanchalik katta bo'lsa, tilning taraqqiyot tarixida ham tafakkurning roli shunchalik kattadir. Grammatika qonunlari, formalari va qoidalarini tuzishda va ularning takomillashib borishida tafakkurning roli katta bo'ladi.

Fikrni ifoda qilish uchun xizmat qiladigan artikulyatsiya, tovush sostavi va intonatsiya, leksika, grammatik tuzilish va stilistik xususiyatlar til vositalaridir. Xullas, til esa bilimlarni tarqatishning muhim vositasidir.

ADABIYOT RO'YXATI.

1. B.O'rinboev, A.Soliev. "Notiqlik mahorati" Toshkent-1984 yil
2. A.Ahmedov "Ifodali o`qish" Toshkent-1987 y.
3. S.Imomxo'jaev "Ifodali o`qish asoslari" Toshkent-1989 yil
4. Mirtojiev M., Mahmudov N. "Til va madaniyati", Tosh-1992 yil
5. Umirqulov B. "Lektor nutqi va badiiy til" Toshkent-1981 yil
6. Shomaqsudov A. "O'zbek tili stilistikasi" Toshkent-1974 yil

5 - mavzu	Ifodali o'qish vositalari (davomi. Urg'u. Pauza va intonatsiya. Temp va ritm).
------------------	---

5.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejası:	1. Urg'u va uning ifodali o'qishdagi ahamiyati. 2. Pauza. Pauza turlari. 3. Intonatsiya haqida ma'lumot. 4. Temp va ritm.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Urg'u va uning turlari haqida ma'lumot berish. Urg'uning ifodali o'qishdagi ahamiyati masalalariga e'tibor qaratish. Pauzaning 3 turi haqida tushuncha berish. Intonatsiyaning muhim xususiyatlarini aniqlash.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- Ifodali o'qishga o'rgatishda urg'uning ahamiyatini ochib berish; - Pauza turlari haqida ma'lumot berish; - Ifodali o'qish jarayonida intonatsiyaning ahamiyatini misollar yordamida tushuntirish; - Badiiy asarda temp va ritm asarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini ochishga xizmat qilishini tushuntirib berish.	- Ifodali o'qishga o'rgatishda urg'uning ahamiyatini tushunib oladilar; - Grammatik pauza, mantiqiy pauza, psixologik pauza haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. - Ifodali o'qish jarayonida intonatsiyaning o'rmini bilib oladilar; - Badiiy asarda temp va ritm asarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini ochishga xizmat qilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster, kichik guruhlar bilan ishlash.
O'qitish vositalari	Proyektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Guruhlar bilan ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

5.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Yozib oladilar. 2.2. E'tibor beradilar.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Reja asosida ma'ruzani bayon etadi. 3.1. Savollarga berilgan javoblardan kelib chiqib, yangi mavzu bayoni bilan tanishtirish; 3.2. Pauza turlari haqida ma'lumot berish; Ifodali o'qish jarayonida intonatsiyaning ahamiyatini misollar yordamida tushuntirish; 3.4. Badiiy asarda temp va ritm asarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini ochishga xizmat qilishini tushuntirib berish.	3.1. Savollarga imkon qadar javob beradilar, tushunmaganlari haqida savollar beradilar; 3.2. Yozib oladilar. 3.3. E'tibor beradilar, yozib oladilar. 3.4. Misollar yordamida sharhlaydilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga hulosasi yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalar reyting tizimida baholanadi. 4.2. Mustaqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Mavzu yuzasidan tushunmaganlarini so'raydilar, yozib oladilar. 4.2. YOzib oladilar. Mavzuga oid savollar bilan murojaat qiladilar.

REJA:

1. Urg'u va uning ifodali o'qishdagi ahamiyati.
2. Pauza. Pauza turlari.
3. Intonatsiya haqida ma'lumot.
4. Temp va ritm.

Tayanch tushunchalar:

Urg'uning ahamiyati, pauza, pauza turlari: grammatik pauza, mantiqiy pauza, psixologik pauza; badiiy asarda temp va ritm asarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini ochishi.

Uyg'onish davrining ikkinchi yarmida nazm keng rivojlangan bo'lib, mushoiralarda notiqlikning ro'li. Beruniy "geodeziya" asarida inson nutqining fazilati. Abu Nosir Farobiyning to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, go'zal va mazmundor nutq tuzish haqida. Kaykovus "Qobusnoma"da nutq odobi va notiqlik madaniyati haqida. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va qo'llash haqida.

Adib Ahmad Yugnakiy so'zlaganda nutqni o'ylab, shoshmasdan tuzishga keraksiz, yaramas so'zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so'zlash haqida. A.Navoiy nutq tuzishning go'zal namunalari haqida. Boburning o'g'li Humoyunga yozgan maktubi.

Sharq mutaffakkurlari nutq oldiga tilni puxta o'rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so'zlashni o'rganish, nutqning ichki (mazmun) va tashqi (shakl) ko'rinishiga birday e'tibor berish, go'zal va ta'sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o'rinli ishlatish vazifalarini o'rganish va tahlil qilish. Ifodali nutqning fonetik vositasi juda xilma-xil. Tubdan farq qiluvchi dektsiya, to'g'ri adabiy talaffuz qilish, so'zlarning intonatsiyasi va hokazolar shular jumlasidandir.

Ifodali nutqning leksik vositalari ham turlicha. So'zlarni to'g'ri tanlash, ularning ma'nolarini e'tiborga olish, so'zlar va ko'chma ma'nodagi iboralardan hamda obrazli ifodalardan foydalana bilish ana shunday leksik vositalar hisoblanadi. Nutg'ning obrazlilikini ta'minlovchi vositalar, asosan, qo'yidagilar:

1. Turoqlar, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlar: o'xshatish, epitet, istiora, metonimiya, senekdoxa, mubolag'a, kichraytirish, majoz, kinoya va boshqalar.

2. Figuralar, maxsus stilistik usullar: qaytarish, ellipsis, ritorik savol, ritorik murojaat, xitob, apastrofa, graditsiya, antiteza, sintaktik parallelizm singari to'g'ri va obrazli ahamiyatga ega bo'lgan boshqa ifodalar.

3. Nutqning grammatik ifodaliligi, avvalo, kelishiklarning, so'zlarning sistemasiga, kelishiklar va atributiv (aniqlovchi) birikmalarga, turli-tuman so'z birikmalaridan foydalanish imkoniyatlariga ham bog'liqdir.

Nutqning ta'sir qiluvchi tomoni, avvalo, uning mazmunini, shuningdek, nutqning tushunarli va ifodali bayon etilishiga bog'liqdir. Shuning uchun sodda, tushunarli, mantiqiy gapiish kerak. Notiq nutq yordamida tinglovchilarda ongli harakatga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bunga, avvalo turli formadagi iltimoslar, buyruq, talab, taqiqlash, mann qilish, ruxsat bermaslik, do'q urish, ta'na qilish orqali erishiladi. Notiq takliflar, noto'g'ri harakatlarning oldina olish yoki ogohlantirish, maslahat yoki tavsiya qilish, yo'llanma berish kabi formalardan ham foydalanadi. Lektor-notiq lektsiyaning ta'sirchanligini, hayotiyligini, badiiy qimmatini oshirish maqsadida o'z lektsiyalarini badiiy adabiyotlardan keltirilgan misollar,

taraxiy, harbiya arboblarning buruqlaridan olingan tsitatalar asosida boyitish lozim. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki, badiiyi adabiyotlardan olingan parchalarni tinglovchilarga etkazishda o'sha parchaga xos intonatsiyani saqlab qolish muhim rol' o'ynaydi.

Nutqning aloqa madaniyati-bu til vositasi yordamida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish madaniyatidir. Informatsiya va aloqa nazariyasi turli sharoitlardagi muomila-munosabatlarning yordami natijasida olinadigan informatsiyalarning umumiy qonunlarini ifoda qiladi. Notiq-lektor informatsiyaning chinakam manbai, uning nutqi esa ma'lumotlarning maxsus ravishda tashkil qilingan sistemasidir. Nutqning auditoriya tomonidan lektor istaganidek qabul qilinishi va tushunilishi uchun notiq tomonidan harakat programmasi avvaldan yaxshilab o'ylangan bo'lishi va shu asosda bajarilishi kerak.

Intonatsiya-muomila munosabatining muhim vositasidir. U nutq ta'sirini ko'chaytirish, so'zlar va iboralarning mazmunini aniqlashi yoki buzib ko'rsatishi mumkin. Intonatsiya kishilarning muomila-munosabat protsessida emotsional-iroda munosabatlarini aks ettirdi. Biz intonatsiya yordami bilan sodda gap, so'roq gap, undov gaplar tuzamiz. Intonatsiya nutqni bo'lak-bo'laklarga, jumalarga va mazmunan kichik-kichik bo'lakchalarga bo'ladi. Intonatsiya nutqning sintagma to'g'ri bo'linishida va mantiqiy urg'uning qo'yilishida ifoda qilinadi:

Notiq nutqining ta'sirchanligida intonatsiyaning ahamiyati katta. Notiq tinglovchilarda tabiat va turmushdagi biror hodisaga, narsaga qiziqish paydo qilish, nutq qaratilgan predmetning xususiyatlarini ularga to'laligicha etkaza bilish uchun nutqda talaffuzga alohida e'tibor berishi lozim.

Intonatsiya stilistik ahamiyatga ham egadir. Jumladan, intonatsiya odatdagi va notiqlik intonatsiyasiga bo'linadi. Odatdagi intonatsiya umumiy xarakterga ega bo'lib, kishilarning bir-birlari bilan nutqi aloqalarida bir-birlarini anglab etishlarida qo'llanilsa, notiqlik intonatsiyasi notiq nutqining tinglovchilari ongida ta'sir etishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nutqning til madaniyat lug'at madaniyatini egallashini talab etadi. Bunda notiqning individual lug'ati aktiv ravishda kengayib borishi, nutqg'da so'zlarning to'g'ri va ko'chma ma'nolari ahamiyatining ortib borishi ko'zda tutiladi. Sinonimlar, omonimlar va antonimlardan to'g'ri foydalanish, terminlar va ularni to'g'ri tadbiq eta bilish, chet el so'zlari va qisqartirilgan, murakkab so'zlarni bilish hamda ularni o'z o'rnida ishlatish lug'at madaniyatini egallashning muhim shartidir.

Tilda bo'lgan hamma so'zlarning jami lug'at sostavi deb ataladi. qayti tilning lug'at sostavi benihoya boy va xilma-xil bo'lsa, but il rivojlangan til bo'ladi.

Har bir notiq foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgan lug'at sostavi qanchalik boy va taraqqiy qilgan bo'lsa, uning individual lug'ati va nutqi ham shunchalik boy va taraqqiy qilgan bo'ladi.

Har bir so'zning o'z ma'nosi bor, har bir so'z muayyan bir narsaga yoki narsalar turkumiga, shuningdek, narsalarning muayyan bir belgilariga--- ularning xususiyatlariga, bog'lanishlariga, munosabatlariga va boshqa shu kabi belgilarga taalluqlidir. So'zning ma'nosi kishilarning nutq praktikasida bir biri bilan bo'layotgan o'zaro aloqasida ma'lum bo'ladi va kishilarning bir-birlarini tushunishlarini ham ta'minlaydi. Chunki gaplashayotgan kishilarning har biri muayyan bir narsa to'g'risida muhokama yuritadi va har bir so'zni muayyan bir ma'noda ishlatadi.

Har bir notiq nutqning lug'at sostavi tilning grammatik tuzilishidan ajralgan holda bo'lishi mumkin emas. Xuddi shuningdek, har bir notiq o'z tilining Lug'at sostavini shu tilning grammatika tuzilishi asosida egallaydi. Nutqning grammatik formasi va sintaktik madaniyati, avvalo, normativ grammatika qoidalariga rioya qilishda, grammatik formalarni to'g'ri qo'llay bilishda o'z ifodasini topadi. Gap tuzilishida, so'z birikmalarida yo'l qo'yiladigan xatolardan qochish kerak.

Har bir so'zning o'z ma'nosi bor, lekin har bir so'z o'z foriasini o'zgartirib, grammatika qoidalari asosida tuzilgan biror gap tarkibiga kirgandagina muayyan bir ma'no oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. B.O'rinboyev, A.Soliyev "Notiqlik mahorati", Toshkent-1984 yil
2. A.Ahmedov "Ifodali o`qish" Toshkent 1984 yil
3. Mirtojiyev, Mahmudov N. "Til va madaniyat" Toshkent-1992 yil
4. Umirqulov B. "Lektor nutqi va badiiy til" Toshkent-1981 yil
5. Abdurahmon Ortiqov, Abduqaffor Ortiqov "nutq madaniyati va Ifodali o`qish" Toshkent-2002 yil.